

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

KAXAROV QOBIL SHUHRAT O‘G‘LI

**O‘ZBEK VA NEMIS OILALARI NUTQIY ETIKETINING
LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of the doctor of sciences (DSc)

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Kaxarov Qobil Shuhrato o‘g‘li

O‘zbek va nemis oilalari nutqiy etiketining lingvokulturologik tadqiqi3

Kakharov Qobil Shuhrat ugli

A Linguoculturological Investigation of Speech Etiquette in Uzbek and German Families 37

Кахаров Кобил Шухрат угли

Лингвокультурологическое исследование речевого этикета узбекских и немецких семей73

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works

Список опубликованных работ79

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

KAXAROV QOBIL SHUHRAT O‘G‘LI

**O‘ZBEK VA NEMIS OILALARI NUTQIY ETIKETINING
LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.DSc/Fil425 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti veb-sayti www.fdu.uz hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Muminov Sidikjon Mirsobirovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Vositov Valijon Abduvaxobovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sobirov Abdulxay Shukurovich
filologiya fanlari doktori, professor

Daliyeva Madina Xabibullayevna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "8" 10 kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Tel: (99873) 244-44-02; e-mail: fardu_info@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universiteti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (571 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel: (99873) 244-44-02; e-mail: fardu_info@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "8" 09 kuni tarqatildi.
(2025-yil «20» 09 dagi 46 raqamli reestr bayonnomasi).



G.Z.Rozikova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filol.f.d., professor

M.T.Abdupattoyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

A.G.Sabirdinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida nutqiy etiket masalasi madaniyatlararo kommunikatsiya, pragmalingvistika va sotsiolingvistikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Globalizatsiya ta‘sirida millatlararo muloqot kengayib, madaniy kodlar, milliy mentalitet va kommunikativ strategiyalarni lingvistik jihatdan o‘rganishga ehtiyoj ortmoqda. Oila esa har bir jamiyatda muhim ijtimoiy birlik bo‘lib, uning nutqiy odob me‘yorlari madaniyatlararo muloqot va milliy identitet shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bois o‘zbek va nemis oilalaridagi nutqiy etiketni qiyosiy asnoda o‘zaro solishtirish va lingvomadaniy asosda tadqiq etish muhim ilmiy masala hisoblanadi. Tadqiqot natijalari esa madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, til o‘rgatishda milliy xususiyatlarni hisobga olish hamda oilaviy muloqot madaniyatini shakllantirishga xizmat qilishi bilan amaliy ahamiyatga ega.

Dunyo tilshunosligida kommunikativ, xususan oilaviy nutqiy etiket masalalari turli ilmiy yo‘nalishlar bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganilmoqda. Zamonaviy lingvistika doirasida nutqiy odob, madaniy kontekst va pragmatik tamoyillarni tadqiq etish jamiyatdagi kommunikativ jarayonlarni chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Garchi Yevropa va Amerikada oilaviy muloqot, nikoh va motam marosimlaridagi nutqiy etiket keng tadqiq etilgan bo‘lsa-da, o‘zbek va nemis oilalariga xos nutqiy odob me‘yorlarining lingvomadaniy xususiyatlari hali yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu bois ularning qiyosiy tahlili milliy va universal nutqiy etiket xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari lingvokulturologiya va sotsiolingvistika sohalarini boyitadi hamda o‘zbek va nemis tillarida oilaviy muloqotda qo‘llaniladigan nutqiy odob me‘yorlarini tizimlashtirishga nazariy asos yaratadi.

Mamlakatimiz mustaqillik yillarida o‘zbek tilshunosligida turli xalqlarning milliy-madaniy va etnik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar keng rivojlandi. Bugungi kunda o‘zbek milliy qadriyatlarini sharqona madaniyat kontekstida chuqur tahlil qilishga ehtiyoj ortmoqda. Til siyosatini takomillashtirish, o‘zbek tilining xalqaro maydondagi mavqeyini oshirishga qaratilgan islohotlar esa tilshunoslik tadqiqotlariga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu jihatdan ilgari surilgan “Oila – mehr va baxt qo‘rg‘oni. Oila bor ekan, farzand degan bebaho ne‘mat bor, insoniy qadr-qimmat va ma‘naviyat bor. Oilaviy baxt – bu eng ulug‘ saodatdir. Mashhur qo‘shiqlardan birida aytilganidek, “Uyida baxti borlar har yerda baxtiyordir”¹ kabi fikrlari mazkur mavzuning dolzarbligini yanada ta‘kidlaydi. Xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam poydevor yaratish zarurligini ilgari surgan “Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘ladigan yangi tizimni yo‘lga qo‘yish vaqti-soati keldi”² degan g‘oya ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarga nazariy va amaliy asos bo‘lib

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2021-yil 7-mart. – №48 (7828).

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2021 йил 6 майдаги чет тилларини ўқитиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари юзасидан ўтказилган видеоселектор йиғилишидаги нутқи // Янги Ўзбекистон. – Тошкент, 2021, 7 май. – №92 (348).

xizmat qilmoqda. Ushbu yondashuv asosida xorijiy tillarni o'rgatishda o'zbek va nemis oilalaridagi nutqiy etiket birliklarini lingvomadaniy nuqtayi nazardan tadqiq etish, nikoh va oilaviy marosimlarga oid leksik birliklarning qiyosiy tahlilini amalga oshirish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot o'zbek va nemis oilalarida shakllangan nutqiy odob me'yorlarini lingvomadaniy, sotsiolingvistik va pragmatik jihatdan tizimlashtirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyalari to'g'risida"gi farmonlari, shuningdek, 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 21-dekabrda PQ-401-son "Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2025-yil 14-martdagi PQ-103-son "Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-martdagi 128-son "O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini 2024-2025-yillarda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³. Jahon tilshunosligida nutqiy etiket, madaniy kodlar va madaniyatlararo kommunikatsiya masalalari bugungi kunda ko'plab yetakchi ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassasalarida tadqiq etilmoqda. Xususan, Chikago, Garvard, Indiana universitetlarida (AQSh), Oksford universiteti (Buyuk Britaniya), Leuven universiteti (Belgiya), Toronto universiteti (Kanada), Mainz adabiyot va fanlar akademiyasi, Mainz universiteti, Berlin Humboldt universiteti, Mannhaym Leibnitz Institut fuer Deutsche Sprache ilmiy-tadqiqot markazi (Germaniya), M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (Rossiya), Sankt-Peterburg Davlat Universiteti (Rossiya), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti, Qarshi davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti, Farg'ona davlat universiteti (O'zbekiston)da olib borilmoqda.

³ Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi <http://en.wikipedia.org/>; <http://ru.wikipedia.org/>; <http://az.wikipedia.org/>; <http://www.jstor.org/>; <http://www.cyberleninka.ru/>; <http://www.dissercat.com/>; <http://books.google.co.uz/https://tr.wikipedia.org/>; <https://www.turuz.com/>; <https://www.tdk.gov.tr/divanu-lugatit-turk/kasgarli-mahmud-ve-divanu-lugatit-turk/> va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

Dunyo tilshunosligida nutqiy etiketning lingvokulturologik jihatlari, milliy kommunikatsiya madaniyati, muomala strategiyalari va illokutiv aktlarning madaniyatga xos ko‘rinishlariga doir tadqiqotlardan quyidagi ilmiy natijalar olingan: lingvopragmatika va nutq aktlari nazariyasi asosida kommunikativ strategiyalar va muloyimlik tamoyillarining madaniyatga xos shakllari tahlil qilingan (Chikago, Garvard, Indiana universitetlari, AQSh), madaniyatlararo muloqotda nutqiy etiketning universal va milliy komponentlari, yuqori va past kontekstli madaniyatlarda murojaat shakllari va illokutsion aktlarning ifoda usullari tadqiq etilgan (Oksford universiteti, Buyuk Britaniya), madaniy skriptlar, lingvokulturologik ssenariylar, konseptual metafora va til orqali milliy tafakkurning ifodasi nazariy jihatdan asoslangan (Leuven universiteti, Belgiya; Toronto universiteti, Kanada), nemis tili doirasida madaniyatga oid kommunikatsiya modellari, nutqiy etiket shakllari va ijtimoiy nutq xulqining til vositalarida ifodalanishi aniqlangan (Mainz universiteti, Berlin Humboldt universiteti, Mannhaym Leibniz Instituti, Germaniya), rus tilshunosligida esa nutqiy etiketning sotsiolingvistik asoslari, madaniy konnotatsiyalar va kommunikatsiya madaniyati muammolari chuqur yoritilgan (M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti, Rossiya), O‘zbekistonda esa o‘zbek tilida nutqiy etiket birliklarining milliy-madaniy xususiyatlari, muomala strategiyalarining ijtimoiy-ma’naviy asoslari va illokutiv aktlarning lingvopragmatik ifodasi tahlil qilingan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Samarqand davlat universiteti, O‘zbekiston Milliy universiteti, Qarshi davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti, Farg‘ona davlat universiteti).

Jahon zamonaviy tilshunosligida nutqiy etiket tadqiqotlari madaniyatlararo muloqot doirasida quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda olib borilmoqda: nutqiy strategiyalar va kommunikativ to‘qnashuvlarni yumshatish mexanizmlarini aniqlash; tabu va evfemizmlarning madaniy funksiyalarini lingvopragmatik jihatdan tahlil qilish; marosim nutqining ijtimoiy va sotsiomadaniy o‘rni hamda uning til strukturasi bilan bog‘liq xususiyatlarini o‘rganish; oilaviy diskursda genderga oid kommunikativ xatti-harakatlar, generatsiyalararo til madaniyati va ijtimoiy rollarning lingvistik ifodasi; nutqiy etiket birliklarini kontrastiv-lingvokulturologik tadqiq qilish, jumladan, turli tillarda tabriklash, ta’ziya bildirish, murojaat qilish, uzr so‘rash kabi illokutiv aktlarning madaniy talqinlarini qiyosiy tahlil qilish; multimodal kommunikatsiya kontekstida madaniy kodlarning lingvomadaniy semantikasi va ularning ifodaviy vositalarini aniqlash.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha J.Austin, J.Sirl, H.Grays, G.Lich, G.Lakof, R.Vots, W.Bublits, S.Levinson, E.Sapir, B.Vorf, V.fon Humboldt, A.Virtsbika, N.Arutyunova, E.Vereshagin, V.Kostomarov, Y.Desheriyev, N.Formanovskaya, A.Akishina, R.Dirven, G.Radden, M.Biyervish, C.Erhart, E.Noyland, H.Elih, B.Shpilner, H.Lyuger, F.Koulmas, H.Krats, B.Yanetski, V.Dosik, R.Ros, V.Shtange, T.Layzi, J.Shilt, A.Knigge, V.Alpatov, L.Stupin, K.Ignatyev, N.Firsova, B.Kim, V.Bredov, I.Renate, Sh.Fridman, J.Schild, M.Bennett, G.Hofshtede, R.Kahler kabi olimlar jahon

tilshunosligida turli tillardagi nutqiy etiket birliklarini lingvopragmatik, ijtimoiy-madaniy va lingvomadaniy jihatdan o'rganib, ushbu sohaning rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shganlar⁴. Ularning tadqiqotlarida muloyimlik strategiyalari, illokutiv aktlar, madaniyatlararo farqlar, marosim nutqi, paralingvistik vositalar, madaniy kodlar va nutqiy konventsionalizatsiyalar chuqur tahlil etilgan.

O'zbek tilshunosligida nutqiy etiket, muloqot me'yorlari, oilaviy diskurs, murojaat shakllari va muloqot madaniyati masalalari dastlab B.O'rinboev, N.Mahmudov, S.Mo'minov, Sh.Iskandarova, Z.Akbarova, M.Mamajonov, Q.Rasulov, T.Qudratov, Q.Mo'yidinov, D.Teshaboyeva, M.Gaziyeva, Q.Qong'urov, M.Saidxonov, M.Nurmatova, R.Bobokalonov, B.Rahmatullayev kabi olimlar tomonidan yoritilgan⁵. Ushbu mualliflar asarlarida o'zbek tilida nutqiy odob,

⁴ Austin J.L. How to Do Things with Words. – Oxford: At the Clarendon press, 1962; Searle J.R. Speech acts: an essay in the philosophy of language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969; Lakoff R. The logic of politeness; or minding your p's and q's. In: Papers from the Ninth Regional Meeting of the Chicago Linguistic Society, 1973; Grice H.P. Logic and Conversation. In: Cole, P./Morgan, J. L. (Eds.): Syntax and Semantics. Volume 3: Speech Acts. – New York u. a., 1975; Lakoff R. What you can do with words: Politeness, pragmatics & performatives. – Berkeley, 1975; Bierwisch M. Psychologische Aspekte der Sprache. Zentralinstitut für Sprachwissenschaft. – Berlin, 1975; Coulmas F. Über schrift. Suhrkamp Taschenbuch Wissenschaft. – Frankfurt am Main: Suhrkamp Verlag. 2. Auflage, 1981; Schildt J. Kleine Enzyklopädie. Deutsche Sprache. – Leipzig, 1983; Schildt J. Kleine Enzyklopädie. Deutsche Sprache. – Leipzig, 1983; Brown P., Levinson S.C. Politeness. Some universals in language usage. – Cambridge u. a., 1987; Leech G. Principles of Pragmatics. – London u. a.: Taylor & Francis, 1990; Bode, Kim u.A.: Es gibt viele Sarrazins. // In: Der Spiegel, 36/2010; Bredow W. Medien und Gesellschaft. – Stuttgart, 1990; Leisi I., Leisi E. Sprach-Knigge oder wie und was soll ich reden? – Tübingen: Narr, 1993; Dosick W.D. Golden Rules: The Ten Ethical Values Parents Need to Teach Their Children. – California: Harper One, 1996; Lüger H. Höflichkeitsstile. – Frankfurt am Main u.a.: Lang, 2002; Watts R.J. Politeness. – Cambridge, 2003; Whorf B.L. Sprache-Denken-Wirklichkeit. Beiträge zur Metalinguistik und Sprachphilosophie. Herausgegeben und übersetzt von Peter Krausser. – Reinbek bei Hamburg, 2003; Goddard C., Wierzbicka A. Sprache, Kultur und Bedeutung: Kulturvergleichende Semantik. In: Pörings, R./Schmitz, U. (Hg.) (2003): Sprache und Sprachwissenschaft. Eine kognitiv orientierte Einführung. – Tübingen, 2003; Hofstede G. Culture's Consequences. Comparing Values, Behaviors, Institutions and Organizations Across Nations. – Thousand Oaks u. a.: SAGE Publications, 2003; Ibelgaufts R. Körpersprache. Wahrnehmen, deuten und anwenden. – Augsburg: Weltbild Verlag GmbH Argyle, 2005; Kachler R. Meine Trauer wird dich finden! Ein neuer Ansatz in der Trauerarbeit. – 9. Auflage. – Freiburg: Kreuz Verlag, 2005; Kratz H.J. Wirkungsvoll reden lernen. Rhetoriktraining in 10 Schritten. – Regensburg: Walhalla und Praetoria, 2006; Ehlich K. Sprache und sprachliches Handeln. Band 1: Pragmatik und Sprachtheorie. – Berlin u. a.: De Gruyter, 2007; Watts R.J., Ide S., Ehlich K. Politeness in Language. Studies in its History, Theory and Practice. – Berlin u. a.: De Gruyter, 2008; Bublitz W. Englische Pragmatik. – Berlin: E.Schmidt, 2009; Ehrhardt C., Neuland E. Sprachliche Höflichkeit in interkultureller Kommunikation und im DaF-Unterricht. – Frankfurt am Main u. a.: Peter Lang Group AG, 2009; Leech G. The Pragmatics of Politeness. – Oxford u. a.: Oxford University Press, 2014; Spillner B. Anrede und Grußformen im Deutschen. In: Zeitschrift des Verbandes polnischer Germanisten / Czasopismo Stowarzyszenia Germanistów Polskich, 3, 2, 2014; Knigge A. Über den Umgang mit Menschen. – Hannover, 2018; Janetzky B.A. Trauer Reden. Leitfaden für Traueransprachen. – Düsseldorf: Fachverlag des deutschen Bestattungsgewerbes, 2020; Roth R., Stange W. Starke Kinder- und Jugendparlamente. Kommunale Erfahrungen und Qualitätsmerkmale. – Berlin: Deutsches Kinderhilfswerk e.V., 2020; Акишина А.А., Формановская Н.И. Русский речевого этикет (пособие для студентов-иностранцев). – М.: Русский язык, 1975; Дешериев Ю.Д. Социальная лингвистика. К основам общей теории. – М.: Наука, 1977; Ступин Л.П., Игнатъев К.С. Современный английский речевого этикет. – Л.: ЛГУ, 1980; Арутюнова Н.Д. Фактор адресата // Известия АН СССР / Сер. Литературы и языка. Т.40. – М., 1981; Формановская Н.И. Русский речевого этикет: лингвистический и методологический аспекты. – М.: Русский язык, 1982; Алпатов В.М. Япония. Язык и общество. – М.: Муравей, 1988; Фирсова Н.М. Испанский речевого этикет. – М.: Высшая школа, 1991; Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 2000; Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. Три лингвострановедческие концепции: лексического фона, рече-поведенческих тактик и сапиентемы. – М.: Directmedia, 2005.

⁵ Ўринбоев Б. Хозирги ўзбек тилида вокатив категория. – Тошент: Фан, 1972; Ўринбоев Б. Ўзбек тили сўзлашув нутқи синтаксиси масалалари. – Тошент, 1974; Ўринбоев Б., Ўринбоева Д. Хозирги ўзбек тилининг сўзлашув услуби. – Тошент, 1991; Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубияти асослари. – Тошент: Ўқитувчи, 1992; Искандарова Ш.М. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол.фан. номз. ... дисс.автореф. – Самарқанд, 1993; Саидхонов М.С. Новербал воситалар ва уларнинг ўзбек тилида қўлланилиши: Филол.фан. номз. ... дисс.автореф. – Тошент, 1993; Қудратов Т. Нутқ маданияти

ijtimoiy rol va kommunikativ tamoyillar, psixolingvistik hamda paralingvistik va pragmatik vositalar doirasida muhim izlanishlar olib borilgan.

Tabu, evfemizm, marosim nutqi va oilaviy qadriyatlarining nutqiy ifodalanishi bilan bog'liq lingvomadaniy tadqiqotlar G.Monger, B.Viktoriya, H.Volf, C.Lich, H.Krats, J.Umarov, A.Fitrat kabi mualliflar tomonidan milliy va madaniy asosda tahlil qilingan⁶. Ayniqsa, G.Hofshtede, F.Trompenars, V.Gudikunst, S.Ting-Toomey⁷ singari tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan madaniyatlararo kommunikatsiya modellari, G.Lichning muloyimlik pragmatikasi⁸, A.Virtsbikaning madaniy ssenariy nazariyasi⁹ mavzuning nazariy asoslarini boyitgan.

Dissertatsiya mavzusida ilgari surilgan "O'zbek va nemis oilalari nutqiy etiketning lingvokulturologik tadqiqi" mavjud nazariy va amaliy ishlarga tayanib, ikki xalqning oilaviy muloqotdagi nutqiy, madaniy va sotsiopragmatik o'xshash va tafovutli xususiyatlarini qiyosiy planda tadqiq etishga yo'naltirilgan. Shu sababli, mazkur ish dolzarb bo'lib, til va madaniyat munosabatlarini lingvopragmatik va lingvomadaniy kontekstda o'rganishga yangi ilmiy yo'nalish olib kiradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Chog'ishtirma tilshunoslikning dolzarb muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek va nemis oilalarida nutqiy etiketning lingvomadaniy xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish, ularning lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik jihatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

asoslari. – Toshkent: Ўқитувчи, 1993; Махмудов Н. Ўзимиз ва сўзимиз. – Toshkent: Адабиёт ва санъат, 1997; Махмудов Н. Тил. – Toshkent: Ёзувчи, 1998; Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот ҳулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Toshkent, 2000; Rahmatullayev Н. Otalik farzi / Otamning g'iyovatlar. – Namangan, 2003; Акбарова З.А. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи: Филол.фан. номз. ... дисс.автореф. – Toshkent, 2007; Расулов Қ.А. Ўзбек мулоқот ҳулқининг функционал хосланиши: Филол.фан. номз. ... дисс.автореф. – Toshkent, 2008; Тешабоева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида): Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Toshkent, 2012; Газиева М.Х. Мулоқот жараёнида просодик воситаларнинг лингвопрагматик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа докт.. дисс.автореф. – Toshkent, 2018; Мўйдинов Қ.А. Ўзбек тили суд нутқи лексикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа док. ... дисс.автореф. – Toshkent, 2019; Мамажонов М.Ҳ. Мuloqotning psixolingvistik tadqiqi: Filol. fan. d-ri (DSc)...diss. avtoref. – Farg'ona, 2025; Махмудов Н. Тил сиёсати ва сиёсат тили // Тил тилсими тадқиқи. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2017; Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Тил тилсими тадқиқи – Toshkent: Mumtoz so'z, 2017; Bobokalonov R.R., Nurmatova M.F. O'zbek adabiyotida ayollar nutqining kommunikativ jihatlari // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2024. – 4 (5). – B. 21-25.

⁶ Leach Ch. Abschied nehmen. Ein Vater trauert um seinen Sohn. – München: Kösel-Verlag, 1990; Fitrat A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000; Victoria B.C. Marriage customs and ceremonies in world religions. – Trafford, 2005; Kratz H.J. Wirkungsvoll reden lernen. Rhetoriktraining in 10 Schritten. – Regensburg: Walhalla und Praetoria, 2006; Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Cho'lpon, 2013; George M. Marriage customs of the world: an encyclopedia of dating customs and wedding traditions. Santa Barbara, Calif.: ABC-CLIO, 2013; Wolf H.M. Die schönsten Bräuche, Rituale und Traditionen. – Berlin: Insel Verlag, 2018; Umarov J. Asl otalar kitobi. – Toshkent: Akademnashr, 2022.

⁷ Gudykunst W.B., Ting-Toomey S. Culture and Interpersonal Communication. – New York: Sage Publications, 1988; Trompenaars F. Handbuch globales Managen. Wie man kulturelle Unterschiede im Geschäftsleben versteht. Dt. von Werner Grau. – Düsseldorf u. a., 1993; Hofstede G, Pedersen P.B. Exploring Culture. Exercises, Stories and Synthetic Cultures. – Yarmouth: Nicholas Brealey, 2002.

⁸ Leech G. Principles of Pragmatics. – London u. a.: Taylor & Francis, 1990.

⁹ Wierzbicka A. Russian Cultural Scripts: The Theory of Cultural Scripts and Its Applications. In: Ethos 30/4, 2003. – P. 401-432.

o‘zbek va nemis oilalarida nutqiy etiketning lingvistik, sotsiolingvistik va madaniy asoslarini nazariy jihatdan o‘rganish hamda ularning umumiy va milliy xususiyatlarini belgilash;

nutqiy etiketga oid tadqiqot natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish, o‘zbek hamda nemis tillarida oilaviy muloqotning kommunikativ xususiyatlarini aniqlash;

o‘zbek va nemis oilalaridagi an’anaviy qadriyatlarning lingvomadaniy jihatdan tahlilini amalga oshirish, ularning kommunikativ jarayonlarga ta’sirini tavsiflash;

nikoh va motam marosimlariga oid nutqiy aktlarning lingvopragmatik xususiyatlarini yoritish, ularning milliy va universal jihatlarini tahlil qilish;

o‘zbek va nemis oilaviy diskursida ota-onaning nutqiy rolini lingvopragmatik va sotsiolingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etish;

o‘zbek va nemis oilalarida tabu va evfemizmlarning sotsiolingvistik va madaniy funksiyalarini aniqlash hamda ularning xususiyatlarini pragmatik jihatdan yoritish;

oilaviy nutqiy etiketga oid paremiologik birliklarni lingvomadaniy nuqtayi nazardan tahlil qilish, ularning milliy va umumiy jihatlarini asoslash;

o‘zbek va nemis oilalarida ishlatiladigan nutqiy etiket birliklarini mavzuiy tasniflash va ularning kommunikativ strategiyalarini tavsiflash.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek va nemis oilaviy diskursida uchraydigan nutqiy etiket birliklari, marosim nutqiy aktlari, paremiyalar hamda tabu va evfemizmlar tanlanib, ilmiy manbalar, zamonaviy lingvistik tadqiqotlar, badiiy asarlar va ikki tildagi jonli so‘zlashuv nutqi materiallaridan samarali foydalanilgan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek va nemis oilalaridagi nutqiy etiketning lingvomadaniy xususiyatlari, xususan, oilaviy kommunikatsiyada qo‘llaniladigan nutqiy etiket birliklarining funksional-semantik, uslubiy va lingvomadaniy jihatlari, marosim nutqiy aktlari, paremiologik birliklar hamda tabu va evfemizmlarning milliy va universal xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsifiy, chog‘ishtirma, lingvomadaniy, sotsiolingvistik, lingvopragmatik va diskursiv tahlil usullaridan foydalanilgan. Shuningdek, oilaviy nutqiy etiket birliklarini tahlil qilishda leksik-semantik va paremiologik tahlil usullari ham qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek va nemis oilalaridagi nutqiy etiket birliklarining lingvistik, sotsiolingvistik va madaniy mezonlari, ularning ijtimoiy maqom, yosh, gender, qarindoshlik va an’anaviy qadriyatlar bilan bog‘liqligi, rasmiy va norasmiy muloqotda qo‘llaniladigan ehtiyotkorlik, samimiylik, hurmatga asoslangan kommunikativ strategiyalar lingvomadaniy nuqtayi nazardan asoslangan;

nikoh va motam marosimlarida qo‘llaniladigan nutqiy etiket birliklarining lingvopragmatik va lingvomadaniy jihatlari, ularning tarkibi, emotsional-boyitilgan, illokutiv yo‘naltirilgan va ijtimoiy ierarxiyani aks ettiruvchi semantik xususiyatlari, madaniy konnotatsiyasi hamda madaniy identitetni aks ettiruvchi o‘ziga xos umumiy va milliy farqlari aniqlangan;

ota-onalarning farzandlar bilan muloqotidagi nutqiy etiketlar lingvopragmatik va sotsiolingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etilib, ularning funksional vazifalari,

tarbiyaviy ahamiyati va nutqdagi gender farqlari tahlil qilingan hamda ota nutqidagi avtoritarlik, ona nutqidagi hissiylik kabi xususiyatlar har ikki xalq kontekstida qiyosiy jihatdan dalillangan;

oila doirasida ishlatiladigan tabu va evfemizmlarning sotsiolingvistik va madaniy funksiyalari qiyosiy o'rganilib, ular yordamida axloqiy me'yorlarning tilga integratsiyalashuvi, nozik mavzularning ifodalanish usullari hamda evfemizmlarning o'zbek madaniyatidagi an'anaviylik va nemis madaniyatidagi pragmatiklik bilan bog'liqligi asoslangan;

paremiyalarda ifodalangan nutqiy etiket birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari, har bir xalqning tarixiy-madaniy tafakkuri va qadriyatlarini asosida shakllangan nutqiy etiketi, unda mavjud bo'lgan umumiy insoniy fazilatlar ota-onaga hurmat, farzand tarbiyasi, nikoh va motam marosimlariga oid qadriyatlar orqali namoyon bo'lishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'zbek va nemis oilalaridagi nutqiy etiket tizimi lingvomadaniy, pragmatik va sotsiolingvistik nuqtayi nazardan tahlil etilib, natijalar madaniyatlararo muloqot, tarjimashunoslik va til o'qitish jarayonlarida qo'llanilishi mumkinligi asoslangan;

nutqiy etiketning ijtimoiy-madaniy qadriyatlar bilan bog'liqligi, milliy va universal jihatlari aniqlanib, bu xulosalar sotsiolingvistika va pragmalolingvistika tadqiqotlari uchun amaliy asos bo'lib xizmat qilgan;

tadqiqot natijalari asosida til o'rganuvchilar, tarjimonlar va madaniyatlararo muloqot ishtirokchilari uchun lingvomadaniy tahlillarga asoslangan qo'llanma materiallari taklif etilgan;

tabu va evfemizmlarning sotsiolingvistik hamda madaniy funksiyalari tahlil qilinib, ularning natijalari psixolingvistika, sotsiologiya va etnolingvistika sohalarida qo'llanilishi mumkinligi ko'rsatilgan;

o'zbek va nemis oilalaridagi nutqiy etiket birliklari asosida tuzilgan ideografik lug'atlar tilshunoslik sohasidagi talabalar, tadqiqotchilar va mutaxassislar uchun muhim manba sifatida baholangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotning lingvomadaniy, pragmatik va sotsiolingvistik yondashuvlarga tayangan holda, ilmiy asoslangan metodologiya doirasida olib borilganligi, nutqiy etiket birliklarining real til materiallari asosida tahlil qilinib, kommunikativ vaziyatlarda qo'llanilishi orqali tasdiqlanganligi bilan asoslanadi. Ilgari surilgan xulosalar qiyosiy-nazariy va empirik usullar yordamida tekshirilgan, amaliyotga joriy etilgan hamda tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan. Olingan natijalar zamonaviy lingvokulturologik izlanishlar bilan uyg'un bo'lib, ularning tilshunoslik, tarjimashunoslik va ta'lim jarayonida qo'llanilish imkoniyati ishonchlilikni yanada mustahkamlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, unda o'zbek va nemis oilalaridagi nutqiy etiket lingvomadaniy, pragmatik va sotsiolingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinib, oilaviy muloqotda shakllangan milliy va universal xususiyatlar aniqlangan bo'lib, bu

yondashuv lingvokulturologiya, sotsiolingvistika va pragmalingvistika sohalaridagi ilmiy izlanishlarga nazariy hissa qo‘shadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ta’lim muassasalarida lingvokulturologiya, kommunikativ pragmatika, sotsiolingvistika fanlari bo‘yicha ma’ruzalar, seminarlar, maxsus kurslar hamda dissertatsiyalar, monografiyalar, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini tayyorlashda qo‘llanilishi mumkin. Shuningdek, izohli, etimologik, tarjima va tezaurus lug‘atlarini yaratishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqotning nazariy takliflari, amaliy tavsiyalari va xulosalari quyidagilarga tatbiq etilgan:

o‘zbek va nemis oilalaridagi nutqiy etiket birliklarining lingvistik, sotsiolingvistik va madaniy mezonlari, ularning ijtimoiy maqom, yosh, gender, qarindoshlik va an’anaviy qadriyatlar bilan bog‘liqligi va rasmiy hamda norasmiy muloqotdagi kommunikativ strategiyalar lingvomadaniy nuqtayi nazardan asoslanishiga oid xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida 2020-2021-yillarda bajarilgan IZ-2019081663 “O‘zbek milliy raqs san’atini targ‘ib etishga bag‘ishlangan veb-sayt va multimedia mahsulotlari (elektron lug‘atlar) to‘plamini yaratish” mavzusidagi fundamental tadqiqotni bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2025-yil 7-apreldagi 1/04-210-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘zbek tilidagi madaniy-etiket birliklarining konnotativ xususiyatlarini aniqlashda, ularni raqs san’ati kontekstida tavsiflash va multimodal lingvistik materiallar asosida elektron lug‘at shaklida tizimlashtirishda nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan;

nikoh va motam marosimlarida qo‘llaniladigan nutqiy etiket birliklarining lingvopragmatik, lingvomadaniy va semantik xususiyatlari, ularning tarkibi, madaniy konnotatsiyasi hamda umumiy va milliy farqlariga oid xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida 2021-2023-yillarda bajarilgan F3-2019081773 “Musiqqa va san’at o‘quv muassasalari uchun “Bolalar raqslari” fanidan interaktiv o‘quv-metodik qo‘llanmalar yaratish” mavzusidagi fundamental tadqiqotni bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2025-yil 7-apreldagi 1/04-211-son ma’lumotnomasi). Natijada bolalar raqs san’ati bilan bog‘liq madaniy kontekstlarni yoritish, milliy marosimlarning lingvokulturologik asoslarini anglash hamda o‘quv-metodik materiallarga madaniy-ma’naviy mazmun baxsh etishda tadqiqot natijalari nazariy va amaliy jihatdan asos bo‘lib xizmat qilgan;

ota-onaning farzandlar bilan muloqotidagi nutqiy etiket birliklarining lingvopragmatik va sotsiolingvistik xususiyatlari, ularning funksional vazifalari, tarbiyaviy ahamiyati, shuningdek, nutqdagi gender farqlari, ota nutqida kuzatiladigan avtoritarlik va ona nutqiga xos hissiylik kabi jihatlarga oid ilmiy xulosalardan Germaniya Federativ Respublikasi Yena Fridrih Shiller universitetida foydalanilgan (Yena Fridrih Shiller universitetining 2024-yil 5-avgustdagi ma’lumotnomasi). Natijada “Nemis tili chet tili sifatida (Deutsch als Fremdsprache – DaF)” va “Ikkinchi til sifatida (Deutsch als Zweitsprache – DaZ)” fanlarining

madaniyatlararo muloqot, oilaviy nutqiy etiket strategiyalari, madaniyatga xos nutq aktlari, sotsiolingvistik gender jihatlar va tarbiyaviy til uslublari kabi muhim yoʻnalishlariga bevosita taalluqli boʻlib, nemis tilini chet yoki ikkinchi til sifatida oʻrgatishni yanada chuqurlashtirishda qoʻllanilishi mumkin boʻlgan nazariy va amaliy asoslarni taqdim etgan;

oila doirasida ishlatiladigan tabu va evfemizmlarning sotsiolingvistik va madaniy funksiyalari, ularning yordamida axloqiy meʼyorlarning tilga integratsiyalashuvi, nozik mavzularning ifodalanish usullari, hamda evfemizmlarning oʻzbek madaniyatidagi anʼanaviylik va nemis madaniyatidagi pragmatiklik bilan bogʻliqligiga doir xulosalardan Germaniya Federativ Respublikasi Darmshtat texnika universiteti tilshunoslik va adabiyotshunoslik institutida foydalanilgan (Darmshtat texnika universiteti tilshunoslik va adabiyotshunoslik institutining 2024-yil 21-noyabrdagi maʼlumotnomasi). Natijalar madaniyatlararo muloqotda madaniy sezgirlikni oshirish, tilshunoslikda nutqiy etiketni tahlil qilish, kompyuter lingvistikasida esa evfemistik birliklarni avtomatik aniqlashda amaliy qoʻllanilgan;

oʻzbek va nemis oilalarida qoʻllaniladigan nutqiy etiket birliklari lingvistik, sotsiolingvistik va madaniy mezonlar asosida qiyosiy tahlili, ularning ijtimoiy maqom, yosh, gender, qarindoshlik munosabatlari va anʼanaviy qadriyatlar bilan uzviy bogʻliqligi, rasmiy va norasmiy muloqotdagi kommunikativ strategiyalarga oid xulosalaridan Germaniya akademik almashinuv xizmati (DAAD) tomonidan moliyalashtirilgan ID-57663348 raqamli “European Perspectives in Dialogue: Central Asia and Western Research – Muloqotda Yevropa istiqbollari: Markaziy Osiyo va Gʻarb tadqiqotlari” nomli xalqaro loyiha doirasida foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2025-yil 1-iyuldagi 06/4183-son maʼlumotnomasi). Natijada, tadqiqot xulosalari xalqaro loyiha doirasida Markaziy Osiyo va Yevropa muloqoti kontekstida madaniy va tilshunoslik tafovutlarini tahlil etish, nutqiy etiketning madaniyatlararo qiyosiy xususiyatlarini yoritish hamda samarali muloqot strategiyalarini ishlab chiqishda muhim nazariy va amaliy asos boʻlib xizmat qilgan;

oʻzbek va nemis oilalaridagi nutqiy etiketning lingvistik, sotsiolingvistik va madaniy asoslari, shuningdek, oilaviy diskursdagi kommunikativ odob-axloq meʼyorlari, marosim nutqi, paremiologik birliklar, tabu va evfemizmlar hamda ular orqali ifodalangan ijtimoiy-maʼnaviy qadriyatlar haqidagi xulosalar 2023-2024-yillarda Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Oʻzbekiston” teleradiokanalining “Bedorlik”, “Ijod zavqi”, “Taʼlim va taraqqiyot”, “Millat va maʼnaviyat” eshittirishlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 07-apreldagi 26-36-971-son maʼlumotnomasi). Natijada mazkur eshittirishlar orqali til va madaniyat oʻzaro bogʻliqligi, oilaviy muloqotning lingvopragmatik xususiyatlari va tarixiy paremiologik materiallarning nutqdagi roli yoritilib, yosh avlodning madaniy-lingvistik savodxonligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 13 ta, jumladan, 9 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida, shuningdek, kafedraning ilmiy seminarlarida muhokama qilingan va aprobatsiyadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 25 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, jumladan, 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 245 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalar asosida dissertatsiyaning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Nutqiy etiketning tadqiqi**" deb nomlanib, unda nutqiy etiket tushunchasining shakllanishi va nazariy yondashuvlar hamda nutqiy etiketning sotsiologvokulturologik tahlili xususida nazariy va amaliy bahslar muhokamasi haqida so'z boradi.

Birinchi bobning birinchi faslida *nutqiy etiket tushunchasining shakllanishi va nazariy yondashuvlar* haqida fikr yuritiladi. Nemis nutqiy etiketining ilmiy jihatdan o'rganilishi turli davrlarda keng tadqiqot obyektiga aylangan bo'lib, tilshunoslik, sotsiologiya va madaniyatshunoslik kabi sohalarda yirik ilmiy ishlarga asos bo'lgan.

Nutqiy etiket mavzusiga oid dastlabki ilmiy tadqiqotlar XVIII asrga borib taqaladi. Ayniqsa, nemis madaniyatshunosi Adolf Freiherr von Kniggening "Über den Umgang mit Menschen" asari ushbu sohadagi ilk tadqiqot sifatida e'tiborga molik. Keyinroq nemis tilshunoslari va madaniyatshunoslari tomonidan nutqiy etiket jamiyatning ijtimoiy tuzilishiga, shaxslararo munosabatlarga va til madaniyatiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil sifatida ko'rib chiqildi. Jumladan, nemis tilshunos olimi M.Bierwischning kiyim va lisoniy farqlar o'rtasidagi o'xshashliklarga oid tadqiqotlari til vositalarining ijtimoiy rollarni belgilashdagi ahamiyatini yoritishga qaratilgan¹⁰.

Bugungi kunda nutqiy etiketning o'rganilishida nafaqat tarixiy va nazariy jihatlarga, balki amaliy tadqiqotlarga ham asoslaniladi, shaxslararo va madaniyatlararo kommunikatsiyada etiket qoidalarning qo'llanilishini o'rganishga e'tibor qaratiladi¹¹. Nutqiy etiket til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni

¹⁰ Bierwisch M. Psychologische Aspekte der Sprache. Zentralinstitut für Sprachwissenschaft. – Berlin, 1975. – S.67.

¹¹ Bruck P.A. Interkulturelle Entwicklung und Konfliktlösung. In: Luger, K./Renger (Hg.): Dialog der Kulturen. – Wien, 1994; Held G. Verbale Höflichkeit. Studien zur linguistischen Theorienbildung und empirische Untersuchung zum Sprachverhalten französischer und italienischer Jugendlicher in Bitt- und Danksituationen. – Tübingen, 1995; Haferland H., Ingwer P. Eine Theorie der Höflichkeit. In: Haferland, H./Ingwer, P. (Hg.): Höflichkeit. Beiträge zur Osnabrückner Sprachtheorie 52. – Osnabrück, 1996; Rathmayr R. Sprachliche Höflichkeit. Am Beispiel expliziter und impliziter Höflichkeit im Russischen. In: Girke, Wolfgang (Hg.): Slavistische Linguistik 1995. – München, 1996;

chuqurroq anglash imkoniyatini beradi va turli xalqlarning bir-birlarini tushunishini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Nemis xalqida ham, boshqa xalqlardagi kabi, o'ziga xos muloqot shakllari mavjud bo'lib, ularni til bilan bog'liqlikda ilmiy asosda o'rganish an'anasi qadim davrlardan mavjud bo'lgan.

Nemis nutqiy odatlarini qiyosiy jihatdan o'rganish tillararo turli ta'sirlarni tahlil qilishga imkon yaratgan va bu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar orasida rus tilshunosi V.V.Kolesovning "Yazik goroda" asari alohida e'tiborga loyiq. Ushbu kitobda Peterburg xalqining nutqiy odatlari fransuz, fin va nemis tillarining ta'siri doirasida ko'rib chiqiladi. Asarning mohiyati ko'proq tillarning bir-biriga ta'sirini

Rathmayr R. Höflichkeit als kulturspezifisches Konzept: Russisch im Vergleich. In: Ohnheiser, I. (Hg.): Wechselbeziehungen zwischen slawischen Sprachen, Literaturen und Kulturen in Vergangenheit und Gegenwart. – Innsbruck, 1996; Rathmayr R. Pragmatik der Entschuldigungen. Vergleichende Untersuchungen am Beispiel der russischen Sprache und Kultur. – Köln u. a.: Böhlau Verlag, 1996; Brück F. Österreichische Kulturstandards im Vergleich zu Deutschland – Auswirkungen auf interkulturelles Managementtraining in Österreich. In: Der Donauraum, 2000. – Vol. 40(3); Brück F. Interkulturelles Management. Kulturvergleich Österreich-Deutschland-Schweiz. – Frankfurt am Main u. a.: Verlag für Interkulturelle Kommunikation, 2002; Lüger H. Höflichkeitsstile. – Frankfurt am Main u.a.: Lang, 2002; Held G. Partikeln und Höflichkeit. – Frankfurt am Main u. a.: Peter Lang GmbH, 2003; Haumann S., Koch U., Sornig K. Politeness in Austria: Politeness and Impoliteness. In: Hickey, L./Stewart, M. (Hg.): Politeness in Europe. – Clevedon, 2005; Hemelryk S. Wie höflich ist die Welt? Der große Reader's Digest Test. In: Reader's Digest Juli 2006; Berger T. Sprachliche Konzepte von „Höflichkeit“ in den slavischen Sprachen. In: Kimmich, D./Matzat, W. (Hg.): Der gepflegte Umgang. Interkulturelle Aspekte der Höflichkeit in Literatur und Sprache. – Bielefeld, 2008; Brehmer B. Höflichkeit zwischen Konvention und Kreativität. Eine pragmalinguistische Analyse von Dankesformeln im Russischen. Dissertation. – München u. a.: Sagner, 2009; Ehrhardt C., Neuland E. Sprachliche Höflichkeit in interkultureller Kommunikation und im DaF-Unterricht: Zur Einführung. In: Ehrhardt, C./Neuland, E. (Hg.): Sprachliche Höflichkeit in interkultureller Kommunikation und im DaF-Unterricht. – Frankfurt am Main u. a., 2009; Held G. Stachelschweine in der Sprachwissenschaft. Möglichkeiten und Grenzen des aktuellen pragmatischen Höflichkeitsdiskurses und seiner Anwendung in der interkulturellen Kommunikation. In: Ehrhardt, C./Neuland, E. (Hg.) (2009): Sprachliche Höflichkeit in interkultureller Kommunikation und im DaF-Unterricht. – Frankfurt am Main u. a., 2009; Afonin S. Die Distanzanrede im modernen Deutschen und Russischen. Eine kontrastiv-pragmatische Analyse empirischer Daten. – Frankfurt am Main u. a.: Peter Lang Group AG, 2011; Ehrhardt C., Neuland E., Yamashita H. Sprachliche Höflichkeit zwischen Etikette und kommunikativer Kompetenz: Zur Einführung. In: Ehrhardt, C./Neuland, E./Yamashita, H. (Hg.): Sprachliche Höflichkeit zwischen Etikette und kommunikativer Kompetenz. – Frankfurt am Main u.a., 2011; Ehrhardt C., Neuland E., Yamashita H. Sprachliche Höflichkeit zwischen Etikette und kommunikativer Kompetenz. – Frankfurt am Main u. a.: Peter Lang Group AG, 2011; Ehrhardt C. Höflichkeitsbegriffe – am Beispiel von Höflichkeit und Höflichkeitsbewusstsein in Internetforen. In: Ehrhardt, C./Neuland, E./Yamashita, H. (Hg.): Sprachliche Höflichkeit zwischen Etikette und kommunikativer Kompetenz. – Frankfurt am Main u. a., 2011; Kuße H. Kulturwissenschaftliche Linguistik. Eine Einführung. – Göttingen u. a.: UTB, 2012; Schulze-Neufeld H. Grüßen im Deutschen und Russischen. Eine kontrastive inferenzstatistisch-empirische Analyse. – Frankfurt am Main u. a.: Lang, 2012; Bonacchi S. (Un)Höflichkeit: Eine kulturologische Analyse Deutsch-Italienisch- Polnisch. – Frankfurt am Main u. a.: Peter Lang Group AG, 2013; Fidancheva I. Die verletzende Macht der Höflichkeit. – Paderborn u. a.: Verlag Ferdinand Schöningh GmbH, 2013; Zarend A. Höflichkeit in der interkulturellen Kommunikation Russisch-Deutsch. Sprechwissenschaftliche Untersuchungen zum Höflichkeitsgrad in telefonischen Servicegesprächen. – Berlin: Frank & Timme, 2015; Lüsebrink H. Interkulturelle Kommunikation. Interaktion, Fremdwahrnehmung, Kulturtransfer. – Stuttgart u. a.: J.B. Metzler, 2016; Broszinsky-Schwabe E. Interkulturelle Kommunikation. Missverständnisse – Verständigung. – Wiesbaden: Springer, 2017; Knigge A. Über den Umgang mit Menschen. – Hannover, 2018. – S.395; Раҳматуллаев Б.С. Этикетные формы обращения и привлечения внимания в современном русском языке (в сопоставлении с узбекским): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1992; Беляева А.Ю. Особенности речевого поведения мужчин и женщин: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Саратов, 2002; Ахмедова Н.Ш. Ўзбек тилида мурожаат бирликларининг семантик-коннотатив тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008; Голубовский Д.А. Невербальная коммуникация в древнерусских письменных источниках: опыт семантического анализа: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2009; Маматкулов А.Л. Француз тилида "Нуткий хушёрлик" – социолингвистик ходиса сифатида: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2012; Тешабоева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспекти тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида): Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012;

o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda qiyosiy tahlildan ko'ra, ko'proq tillararo o'zaro ta'sir masalalariga urg'u berildi¹².

Insonning boshqa inson bilan muloqotiga qarab, uning axloqiga ham baho beriladi. So'z orqali insonlarning tafakkuri, fikri anglashiladi, muomala madaniyati orqali u kishining odobi, kelib chiqishi, nasl-u nasabi, ota-onasi va ustozining bergan ta'lim-tarbiyasi namoyon bo'ladi. Insonning ichki dunyosi, shaxsi, aqli va his-tuyg'ulari uning tashqi qiyofasi – ko'zlari, chehrasi, shuningdek, qaddi-qomati va yurish-turishida to'la aks etadi. Insonning ichki dunyosi qanchalik mukammal bo'lsa, yurish-turishi ham shunchalik madaniyatli bo'ladi¹³.

“Muloqot mezon” nomli kitobda esa etiket muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy jihatlarini ilk bor keng qamrovli tarzda tadqiq qilishga alohida e'tibor qaratilgan¹⁴. Bu asarda etiketning kommunikativ xulqqa ta'siri hamda uning ijtimoiy muhitdagi o'rni haqida batafsil ma'lumotlar keltiriladi. Etiketning ijtimoiy va lisoniy ko'rinishlari o'zaro bog'liq ravishda o'rganilib, uning jamiyatdagi o'zaro tushunishni shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi.

Birinchi bobning ikkinchi faslida *nutqiy etiketning sotsiolingvokulturologik tahlili* atroflicha tadqiq etilgan. Ma'lumki, etiket juda murakkab hodisa bo'lib, unda ko'plab omillar ishtirok etgani sababli, etiketning asl mohiyati nimadan iborat ekanligini tushunishda turli qarashlar mavjud. Nemis tilshunosi J.Housening fikriga ko'ra, etiket odob-axloq yoki har qanday insoniy muloqotning ajralmas qismidir. U gapiruvchilar uchun yo'riqnoma va xulq-atvor me'yori sifatida har doim neytral hisoblanadi. Bu esa beodoblik yoki haddan tashqari odob-axloq bilan ko'zga tashlanib turadi¹⁵.

Nemis tilshunos olimi R.Ratmayr etiket xatti-harakatlarning muloqot jarayonida haddan tashqari ko'p yoki umuman yo'qligi muloqot ishtirokchilari tomonidan sezilishi mumkinligini ta'kidlaydi. Bu doimo ma'lum bir baholash bilan birga keluvchi hodisadir, chunki odobli bo'lish ijobiy, beodoblik esa salbiy ma'noga ega. Biroq nimani odoblilik yoki beodoblik deb hisoblash muloqot vaziyatiga bog'liq bo'lishi bilan birga, asosan, madaniyatga ham bog'liq¹⁶.

Etiket shakllari haqida gap ketganda, tilda turli darajalar mavjud, lekin ma'lum bir shaklni ishlatish yoki tanlash har doim so'zlovchiga bog'liq bo'lib, aniqrog'i, uning tarbiyasi, yoshi, bilim darajasi va ayrim xarakter-xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Ba'zi hollarda juda odobli ifoda ham nomuvofiq bo'lishi mumkin, masalan, kimningdir vaqti tig'iz bo'lsa, lekin so'zlovchi unga ortiqcha minnatdorlik bildirsa yoki shunga o'xshash ifodalarni qo'llasa. Nutqiy etiket insonning muloqotdagi odobli yoki noo'rin xatti-harakatlarini aniqlashda turli darajadagi til unsurlari va paralingvistik vositalarning (mimika, qarash, imo-ishora, ovoz tembri,

¹² Колесов В.В. Язык города. – М.: Высшая школа, 1991. – С.50-67.

¹³ Muhammadjonova L, Obidjanova F. Etiket. – Toshkent. O'zbekiston milliy universiteti, 2017. – B. 10.

¹⁴ Mo'minov S. Muloqot mezon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – B. 96.

¹⁵ House J. Politeness in Germany: Politeness in GERMANY? In: Hickey, L./Stewart, M. (Hg.): Politeness in Europe. – Clevedon, 2005. – P. 13-28.

¹⁶ Rathmayr R. Höflichkeit als kulturspezifisches Konzept: Russisch im Vergleich. In: Ohnheiser, I. (Hg): Wechselbeziehungen zwischen slawischen Sprachen, Literaturen und Kulturen in Vergangenheit und Gegenwart. – Innsbruck, 1996. – S. 174-178.

gapiruvchining tana holati) muhim dalil bo‘lib xizmat qilishini anglatadi¹⁷. J.House ushbu tushuntirishlarni qisqa qilib, “etiket – bu kontekstda mos xulq-atvorni belgilovchi me’yor” tarzida umumlashtirish mumkinligini qayd etadi¹⁸.

Rus tilshunosi Y.Formanovskaya etiketni P.Braun va S.Levinson an‘analariga asoslanib, suhbatdoshning imijiga zarar yetkazmaslik strategiyasi sifatida baholaydi¹⁹. Uning fikricha, etiket boshqa shaxsga nisbatan hurmat va xayrixohlik bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, eng avvalo, nutqiy etiketlarda namoyon bo‘ladi.

Etiket boshqa bir shaxsga nisbatan hurmatni ifodalovchi xulq-atvor bo‘lib, bu mehribonlik doirasida so‘z va so‘zsiz muloqot vositalari, avvalo, nutqiy etiket orqali ifodalanadi. Uning asosiy tamoyili – suhbatdoshlarga nisbatan ijobiy munosabat bildirish, ularga zarar yetkazmaslikdir. N.Formanovskayaga ko‘ra, bag‘rikenglik va etiket insonlararo muloqotda o‘zaro bog‘liq hodisalardir. U “muloqotda boshqalarga zarar yetkazma, yaxshilik qil”²⁰ tamoyilini madaniyatlararo va ijtimoiy muloqotning negizi sifatida ta’kidlaydi.

Y.Zemskaya etiket kategoriyasini nutqiy etiketdan ajratib ko‘rib chiqishni taklif qiladi, chunki u faqatgina salomlashish, minnatdorchilik bildirish kabi an’anaviy va ritual ifodalarga emas, balki kengroq til hodisalariga tegishlilikini aytib o‘tadi²¹. Bu, eng avvalo, adresant va adresat o‘rtasidagi munosabat bilan bog‘liq bo‘lib, etiket bir turdagi nutq xulq-atvorining regulyatori vazifasini bajaradi.

J.House tomonidan taqdim etilgan etiket tushunchasiga o‘xshash qarashni T.Larina va B.Bremer ham qo‘llab-quvvatlaydilar. Rus tilshunos olimi T.Larina etiketni kommunikatsiyaning markaziy kategoriyasi sifatida tasvirlaydi, uni muloqot xulq-atvorini tartibga soluvchi omil sifatida takidlaydi.

“Markaziy kommunikativ kategoriya – bu etiket kategoriyasidir. U turli lingvomadaniyat vakillarining xatti-harakatlarini tartibga soluvchi asosiy tamoyil sifatida namoyon bo‘ladi va uning mantiqiy izchilligini kuzatishga imkon beradi²²”.

Nemis tilshunos olimi B.Bremer etiketni “insoniy muloqotning asosiy tamoyili” deb ta’riflaydi va uni “axloqiy-ma’naviy me’yorlarga muvofiq” deb hisoblaydi²³. Ushbu me’yorlar jamiyat a’zolari uchun xulq-atvor yo‘riqnomasi va uni baholash tizimini hosil qiladi.

“Etiket me’yorlari universal va etnik qadriyatlarga asoslanadi. Har bir jamiyatda qo‘rqoqlik, kattalarga hurmatsizlik, kamtarlikning yo‘qligi qoralansa-da, afzal ko‘rilgan fazilatlar va illatlar mavjud axloqiy me’yorlarning o‘ziga xos ifoda

¹⁷ Земская Е.А. Категория вежливости: общие вопросы – национально-культурная специфика русского языка. *Zeitschrift für slavische Philologie*, 1997. – Band LVI. – №2. – S. 271-301.

¹⁸ House J. Politeness in Germany: Politeness in GERMANY? In: Hickey, L./Stewart, M. (Hg.): *Politeness in Europe*. – Clevedon, 2005. – P. 16.

¹⁹ Формановская Н.И. Русский речевой этикет: лингвистические и методологические аспекты. – М.: Ленанд, 1982. – С. 156.

²⁰ Формановская Н.И. Вежливость и толерантность как коммуникативные механизмы снижения речевой агрессии. Агрессия в языке и речи: Сборник научных статей/Под ред. ИА Шаронова. – М.: РГГУ, 2004. – С. 214.

²¹ Земская Е.А. Категория вежливости: общие вопросы – национально-культурная специфика русского языка. *Zeitschrift für slavische Philologie*, 1997. – Band LVI. – №2. – S. 271-301.

²² Ларина Т. Категория вежливости и стиль коммуникации: сопоставление английских и русских лингвокультурных традиций. – М.: Языки славянских культур, 2009. – С. 129.

²³ Brehmer B. Höflichkeit. In: Kempgen, S. et al. (Hg.): *Die slavischen Sprachen. Ein internationales Handbuch zu ihrer Struktur, ihrer Geschichte und ihrer Erforschung*. – Berlin u.a., 2009. – S. 1048.

shakllari hisoblanadi”²⁴. Ma’lumki, jamiyatlar tashkil topishi bilan insonlarning tinch-totuv yashashini ta’minlash uchun xulq-atvor qoidalari va muloqot tamoyillari shakllana boshlagan. Bu qoidalar hayotning barcha jabhalariga tegishli bo’lib, ularga rioya qilgan holda jamiyat a’zolari o’zlarini qulay his qilganlar va bu boradagi xatti-harakatlar osonlashgan.

Lisoniy etiketi jamiyatdagi muloqot madaniyatining asosi bo’lib, majburiy me’yorlar va ixtiyoriy an’analar orqali o’zaro tushunish hamda hurmatni ta’minlashga xizmat qiladi.

Nemis madaniyatida fe’l shakllari, xususan, o’tgan zamon shakllaridan foydalanish muloqotda ohangni yumshatish va xushmuomalalikni ta’minlashda muhim rol o’ynaydi. Masalan, *“Ich wollte Sie fragen”* (Sizdan so’ramoqchi edim) iborasi muloqot odobini va ehtiyotkorlikni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu shakl hozirgi zamondagi *“Ich will Sie fragen”* (Sizdan so’ramoqchiman) iborasidan ko’ra yumshoqroq ohangga ega.

Ilmiy kuzatishlarimizga ko’ra o’zbeklarda ham muloqotda xushmuomalalik va hurmat ifodalashda fe’l shakllari va iboralardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Biroq nemis tilidagi kabi o’tgan zamon shakllaridan emas, balki so’zlarni yumshatuvchi uslub va qo’shimcha iboralardan foydalanish bilan bog’liq xususiyatlar ko’proq uchraydi. O’zbek madaniyatida odob-axloq qoidalari rioya qilish va hurmatni saqlash nutqda yumshoq va muloyim ohangda ifodalanadi. Masalan, e’tibor va hurmatni ta’kidlash uchun *“Iltimos”, “Marhamat”, “Uzr so’rayman”, “Meni kechiring”* kabi jumladan keng foydalaniladi. *“Iltimos, yordam bera olasizmi?”* iborasi ehtiyotkorlik va iltifot bilan aytilayotganini ko’rishimiz mumkin. O’zbek tilida o’tgan zamon shakllari kamroq qo’llaniladi, ammo xushmuomalalikni ifodalash uchun *“Sizdan bir iltimosim bor edi”* kabi iboralar keng ishlatiladi. Masalan, *“Sizdan bir narsani so’ramoqchi edim, siz Zumradxon emasmisiz”*²⁵. Hurmatni oshirish uchun ko’plik shakllari katta yoshdagilar yoki hurmat talab qilinadigan shaxslar bilan muloqotda *siz* shaklidan foydalanadilar. Masalan, *“Eshon ota, uzr, sizga bir savolim bor edi, aytsam maylimi?”*²⁶. *“O’zingiz qanday fikrdasiz?”*.

“Menimcha, sizning fikringizga to’g’ri keladi” ifodasi tanqid yoki rad etishni muloyimroq ifodalash maqsadida, *“Sizga katta rahmat aytmoqchiman, yordam berdingiz”* jumlasida esa muloqotda hurmatni ifodalashda keng qo’llanilishi ma’lum.

Ko’rinadiki, o’zbeklarda xushmuomalalikni saqlashda fe’llar va iboralardan yumshoq ohangda foydalanish odatiy holdir. O’zbek madaniyatida hurmat va samimiylilikni ko’rsatish muloqotning ajralmas qismi bo’lib, bu ko’pincha iltifotli iboralar, ko’plik shakllari va muloyim so’zlardan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv nemis madaniyatiga o’xshash bo’lsa-da, o’ziga xos qadriyatlari tufayli o’zbek tilidagi yumshatuvchi uslublar biroz boshqacha shakllanadi.

²⁴ Карасик В. Язык социального статуса. – М.: Ин-т языкознания РАН, 1992. – С. 110.

²⁵ <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/said-ahmad-1920-2007/said-ahmad-zumrad-hikoya>

²⁶ <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/ozod-mo-min-xo-ja-1952/ozod-mo-min-xo-ja-otaning-duosi-o-q-hikoya>

Murojaat har doim suhbatning boshlanishi bo‘lib, u suhbatdoshda dastlabki taassurotni uyg‘otadi. Bu nafaqat muloqotni boshlash, balki suhbat ishtirokchilarining ijtimoiy maqomini aniqlashda ham muhim rol o‘ynaydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**O‘zbek va nemis oilaviy qadriyatlarining lingvomadaniy tadqiqi**” deb nomlanib, unda nutqiy etiketda oilalaviy qadriyatlarning lisoniy ifodalanishi, nikoh marosimiga oid nutqiy etiket birliklarining lingvomadaniy tahlili hamda nemis motam marosimlarida ma’ruzachi nutqining lingvistik talqini yoritilgan.

Ikkinchi bobning birinchi faslida *nutqiy etiketda oilalaviy qadriyatlarning lisoniy ifodalanishi* atroflicha bayon qilingan. Oila jamiyatning asosiy ijtimoiy instituti sifatida insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy, ma’naviy va huquqiy rishtalarni mustahkamlaydi. “Oila – tarixan tarkib topgan o‘ziga xos va mos ijtimoiy guruh bo‘lib, uning a‘zolari bir-birlari bilan nikoh, qon-qarindoshlik, umumiy turmush va o‘zaro huquqiy, axloqiy, muloqot va boshqa munosabatlar bilan bog‘langandir. Oila nikoh zamirida vujudga keladi. Nikoh esa erkak va ayol orasidagi munosabatlarning jamiyat tomonidan tan olingan, ma’qullangan ifodasi hisoblanadi”²⁷.

Oilaviy munosabatlarning asosi nikoh bo‘lib, u huquqiy, axloqiy va ijtimoiy jihatlarini qamrab oladi. Nikoh oilaning barqarorligi va rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Jamiyat tomonidan e’tirof etilgan ushbu shakl oilaning mustahkamligi va davomiyligini ta’minlab, ijtimoiy aloqalar, ma’naviy qadriyatlar hamda yangi avlod tarbiyasini amalga oshirishda asosiy rol o‘ynaydi.

O‘zbek madaniyatida oilaviy qadriyatlar jamiyatning ijtimoiy-madaniy tizimida muhim tarkibiy bo‘g‘in bo‘lib, ular ijtimoiy institut sifatida oila a‘zolari o‘rtasidagi muloqot, munosabat va xulq-atvorga yo‘naltiruvchi asosiy axloqiy-me’yoriy tamoyillarni belgilaydi. Tilshunos olim R. Matibayevaning qayd etishicha, bu qadriyatlar o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, sadoqat, ishonch va g‘amxo‘rlik kabi ijtimoiy-psixologik komponentlarga tayanadi va ushbu omillar shaxsiy taraqqiyotda axloqiy-psixologik muvozanatni shakllantirishda markaziy o‘rin tutadi²⁸.

Shuningdek, oila doirasida shakllanuvchi qadriyatlar, xususan, halollik, adolat, mehnatsevarlik, kamtarlik, vatanparvarlik va kechirimlilik kabi konseptlar madaniy me’yorlar tizimida avlodlararo uzluksizlikni ta’minlaydigan semantik yadroni tashkil etadi. Bunday mezonlar oilaviy diskursda avloddan-avlodga o‘tuvchi lingvomadaniy kod sifatida faoliyat yuritadi. Farzandlarning ijtimoiylashuvi jarayonida ushbu qadriyatlar konseptual semantik maydonni belgilaydi va ijtimoiy maqomga mos nutqiy etiketni shakllantiradi.

Nemis oilalarida, ayniqsa, farzandlar tarbiyasida va ularning kamolga yetishlarida o‘ziga xos shunday qadriyatlar borki, ular oilada va farzandlar tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi. Masalan, *halollik (Ehrlichkeit)*, *hayotiy tajriba (Lebenserfahrung)*, *yordamga tayyorlik (Hilfsbereit)*, *do‘stona munosabat (Freundlichkeit)*, *qat’iyatlilik (Konsequenz)*, *hayotdan zavq olish (Lebensfreude)* kabilar.

²⁷ Muhammadjonova L., Obidjanova F. Etiket. – Toshkent. O‘zbekiston milliy universiteti, 2017. – B. 105.

²⁸ Matibayeva R. Oilaviy qadriyatlar – mustahkam oila poydevori. IIAU.UZ. 2024

Oilada “yolg‘on gapirmaslik” va “halollik” kabi iboralar nemis xalqining ushbu qadriyatga bo‘lgan alohida e‘tiborini ko‘rsatadi. Bu esa nemis madaniyati ichida ham regional farqlanishlarning mavjudligini ko‘rsatadigan, lingvomadaniy tadqiqotlar uchun asos bo‘luvchi mintaqaviy madaniyatning o‘ziga xosliklariga ishora qiladi²⁹.

Nemis madaniyatida *hayotiy tajriba* ijtimoiy va oilaviy barqarorlikni ta‘minlovchi asosiy omil sifatida qaraladi. Ota-ona va keksalarning tajribasi farzandlar hayot yo‘lini belgilashda yo‘lko‘rsatadi. Bu holat “*aus dem Leben lernen*” (“hayotdan saboq olish”) tamoyili bilan bog‘lanib, tajriba orqali o‘rganilgan saboqlar barqarorlik vositasi sifatida qadrlanadi.

Nemis oilalarida *yordamga tayyorlik* (Hilfsbereit) qadriyati o‘ziga xos o‘rin tutadi. Bu qadriyat oila a‘zolari o‘rtasidagi o‘zaro g‘amxo‘rlik, birdamlik va mas‘uliyat hissi orqali namoyon bo‘ladi. “*Kann ich dir helfen?*” yoki “*Ich bin für dich da.*” kabi iboralar yordamga tayyorlikning nutqiy ifodalaridir. Mazkur qadriyat nemis jamiyatida ham ijtimoiy ishonch va hamkorlikni mustahkamlovchi omil sifatida e‘tirof etiladi. Shu jihatdan, yordamga tayyorlik nemis nutqiy etiketining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi³⁰.

Nemis lingvomadaniyatida do‘stona munosabat faqat shaxsiy emas, balki ijtimoiy nutqiy munosabatlarda ham muhim qadriyat hisoblanadi. So‘rov natijalariga ko‘ra, har ikkinchi respondent oila a‘zolari tomonidan ko‘rsatilgan do‘stona harakatlardan ilhomlanishini bildirgan. Bu holat nemis xalqining nutqiy etiketida samimiylik, e‘tibor va mehr-muhabbatning yuqori baholanishini ko‘rsatadi.

Nemis madaniyatida *qat‘iyatlilik* (Konsequenz) qadriyati oilaviy barqarorlikni ta‘minlovchi muhim tamoyil sifatida qaraladi. Ushbu qadriyat oilaviy nutqiy etiketda doimiy, aniqlik va izchillikni anglatuvchi til vositalari orqali ifodalanadi. Qat‘iyatlilik nemis madaniyatida qadriyatlar uzluksizligini saqlab qolish hamda jamiyatda o‘rnatilgan tartibni mustahkamlashda asosiy rol o‘ynaydi.

Hayotdan zavqlanish (Lebensfreude) va uni to‘laonli his qilish qobiliyati nemis oilaviy muloqotida muhim qadriyat sifatida til orqali ifodalanadi. Bu sifat ko‘pincha ilhomlantiruvchi nutqiy vositalar yordamida bayon qilinadi va hayotning har bir lahzasini qadrlashga undovchi pragmatik nutqiy strategiyalar bilan bog‘liq bo‘ladi³¹.

Nemis oilaviy muloqotida hurmat qadriyati iyerarxik tuzilma va shaxsiy chegaralarni e‘tirof etuvchi nutqiy etiket birliklari orqali, samimiylik va adolat esa halollik va ishonchga asoslangan ifodalar orqali (masalan, *Ehrlichkeit, Gerechtigkeit, Respekt zeigen*) namoyon bo‘ladi. Mas‘uliyat qadriyati *Ich übernehme die Verantwortung* kabi formulalarda til topib, ijtimoiy barqarorlikning nutqiy ko‘rinishini beradi. Minnatdorchilik va do‘stlik esa insonlararo aloqalarni

²⁹ Paus L. Familienleben und Familienpolitik in Ost- und Westdeutschland. – Rostock: MKL Druck GmbH & Co. KG, 2022. – S. 39.

³⁰ <https://www.malteser.de/newsdetails/news/aktuelle-yougov-umfrage-so-hilfsbereit-ist-deutschland.html> (murojaat sanasi: 25.12.2024)

³¹ Thiede R. Kinderglück Leben in großen Familien. – Bonn: Bundeszentrale für politische Bildung, 2014. – S. 31.

mustahkamlovchi *Danke für alles, Freunde fürs Leben* kabi iboralarda mujassam. Tinchliksevarlik qadriyati esa tarixiy tajribadan kelib chiqib, muloqotda mojarodan tiyilish va murosani targ‘ib qiluvchi nutqiy ifodalarda (*Frieden ist das höchste Gut*) o‘z aksini topadi.

Ikkinchi bobning ikkinchi faslida *nikoh marosimiga oid nutqiy etiket birliklari lingvomadaniy* jihatdan tahlil etilgan. Ma’lumki, bugungi kunda Yevropa mamlakatlarida, jumladan, Germaniya turmush tarzida nikohning ahamiyati ma’lum bir ma’noda yo‘qolib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. O‘zbek madaniyatida yoki turmush tarzida esa oila qurishda nikohning muqaddas ekanligi, *nikohsiz oila, nikohsiz farzand* kabi ifodalar turmush tarzimizga zid ekanligini bilamiz.

Nemis to‘y marosimlarida e’tibor ko‘proq kelin-kuyovning shaxsiy baxtiga qaratiladi. Marosimni ixcham o‘tkazish, faqat yaqin do‘stlar va oila a‘zolarini taklif qilish odatga aylangan.

2.2-jadval. To‘y marosimlarining lingvomadaniy taqqoslanishi

Farqlanuvchi jihatlar	O‘zbek lingvomadaniyatida	Nemis lingvomadaniyatida
Ota-onaning roli	To‘yni rejalashtirish va xarajatlarni qoplashda yetakchi o‘rinda. <i>“Biz sening ustingdan ish qilib qo‘ydik.”</i>	Qo‘llab-quvvatlovchi, maslahat beruvchi. <i>“Ihr entscheidet, wir helfen.”</i>
Moliyaviy mas’uliyat	Ota-onalar tomonidan to‘liq qoplanadi.	Kelin-kuyov tomonidan qoplanadi, ota-onalar faqat yordam beradi.
Nikohga ta’sir etuvchi subyektlar	Ota-onalar turmush o‘rtog‘ini tanlashda sezilarli rol o‘ynaydi. <i>“Ota rozi – Xudo rozi”</i>	Kelin-kuyovning shaxsiy qaroriga asoslanadi. <i>“Es ist unsere Entscheidung.”</i>
To‘y tayyorgarligi davomiyligi	Yillar davomida ijtimoiy mavqega qarab rejalashtiriladi.	Ixcham va moliyaviy imkoniyatlarga moslab rejalashtiriladi.

Nemis to‘y marosimida **Eheversprechen** (nikoh qasami yoki va’dasi) odatda **cherkov nikoh marosimida** (*kirchliche Trauung*) yoki ba’zi hollarda **fuqarolik nikoh marosimida** (*Standesamtliche Trauung*) aytilishi kuzatiladi. Mazkur jarayon kelin va kuyovning bir-biriga sadoqat va muhabbatini ta’kidlash uchun ishlatiladigan nikohning asosiy qismi hisoblanadi³².

Nikoh qasami yoki va’dasi cherkovda o‘tkaziladigan diniy nikoh marosimining asosiy qismi bo‘lib, odatda nikohni o‘qib eshittiruvchi ruhoniy tomonidan olib boriladi. Kelin va kuyov bir-biriga qasamyod qilishdan oldin, ruhoniy ularning nikohga roziliklarini so‘raydi. *“Willst du diesen Mann/diese Frau lieben und ehren, bis der Tod euch scheidet?”* (Siz bu erkak/ayolni sevib va hurmat qilib, o‘lim ajratguncha sadoqatli bo‘lishga rozimisiz?) Kelin va kuyov shunday javob beradilar: *“Ja, ich will.”* (*Ha, roziman.*) *Nikoh qasami (Eheversprechen)* odatda quyidagi mazmunga ega bo‘ladi:

³² <https://www.malte-reiter.de/blog/eheversprechen-freie-trauung/#:~:text=eurer%20Ehe%20spielen-,Braucht%20man%20ein%20Eheversprechen%20f%C3%BCr%20eine%20freie%20Trauung%3F,der%20Zeremonie%20selbst%20bestimmen%20kann> (murojaat sanasi: 17.10.2024)

1. Bir-biriga muhabbat va sadoqatni va'da qilish. 2. Birgalikda hayotdagi yaxshi va qiyin kunlarni baham ko'rishga va'da berish. 3. Nikohni hayotlarining so'nggi daqiqasigacha saqlash va bir-birlarini hurmat qilishni ta'kidlash.

Masalan, an'anaviy nikoh qasami quyidagicha bo'lishi mumkin: *“Ich nehme dich zu meinem Mann/meiner Frau. Ich verspreche, dich zu lieben, zu ehren und dir treu zu bleiben, in guten wie in schlechten Tagen, bis der Tod uns scheidet”*³³. (Men seni o'z turmush o'rtog'im sifatida qabul qilaman. Seni sevishga, hurmat qilishga va sadoqatli bo'lishga, yaxshi va yomon kunlarda yoningda bo'lishga va o'lim ajratguncha birga yashashga va'da beraman).

Yuqoridagi misol lingvistik jihatdan illokutiv aktning aniq namunasi hisoblanadi³⁴. Ushbu misolda „versprechen“ fe'li orqali kelin va kuyov o'zaro majburiyatni bildiradi. Harakatlar qatorida keltirilgan infinitivlar *lieben, ehren, treu bleiben* semantik jihatdan abadiylik, hurmat va sadoqat kabi nikohning asosiy qadriyatlarini aks ettiradi. „*in guten wie in schlechten Tagen*“ iborasi stilistik antitezis orqali vaziyatdan qat'i nazar va'da kuchini kuchaytiradi. „*bis der Tod uns scheidet*“ esa temporal metafora bo'lib, nikohning o'limgacha davom etish konseptini bildiradi.

To'y va'dalaridagi asosiy g'oya kelin-kuyovning bir-birlariga sog'liq va kasallikda, toki o'lim ularni ajratmaguncha, Alloh oldida abadiy sodiqlikni to'yga tashrif buyurganlar guvohligida va'da qilishidan iboratdir³⁵.

Nikoh va'dalari tuzilishi yoki ko'rinishi jihatidan ikki turga, ya'ni kichik va katta va'dalarga bo'linadi. Biz quyida kichik nikoh va'dalaridan misollar keltirib, ularning leksik va semantik xususiyatlarini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Masalan, *“Mein Schatz, heute ist der schönste Tag in meinem ganzen Leben und ich dachte eigentlich, dass nichts mehr den Tag toppen könnte, an dem ich Dich kennengelernt habe. Du bist mein Ein und Alles und die Liebe meines Lebens. Ich verspreche Dir, Dich für immer bedingungslos zu lieben und zu unterstützen. Immer ehrlich zu Dir zu sein, Dir zu vertrauen und Dich zu achten. Ich freue mich, Dich dann endlich meinen Ehemann / meine Ehefrau zu nennen und so viele schöne Momente noch mit Dir teilen zu dürfen.”* (Bugun butun hayotimdagi eng go'zal kun va men Seni uchratgan kunimning hech narsa o'rmini bosa olmaydi, deb o'ylayman. Sen mening hamma narsam va hayotimning muhabbati. Men Seni abadiy sevishga va qo'llab-quvvatlashga, doimo Senga sodiq bo'lishga, Senga ishonishga va Seni hurmat qilishga va'da beraman. Nihoyat, Seni erim/xotinim deb atashdan va Sen bilan juda ko'p go'zal lahzalarni birga bo'lishishdan xursandman)³⁶.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli *o'zbek va nemis motam marosimlari nutqiy etiketining lingvistik talqini* deb nomlangan. Tug'ilish, o'lim masalalari turli tarixiy davrlar va barcha xalqlar madaniy an'alarida inson hayotining eng muhim bosqichi sifatida e'tirof etilgan hamda hozirda ham shundayligicha qolmoqda. Inson

³³ <https://www.malte-reiter.de/blog/eheversprechen-freie-trauung/#:~:text=eurer%20Ehe%20spielen-,Braucht%20man%20ein%20Eheversprechen%20f%C3%BCr%20eine%20freie%20Trauung%3F,der%20Zeremonie%20selbst%20bestimmen%20kann> (murojaat sanasi: 17.10.2024)

³⁴ Searle J.R. *Speech acts: an essay in the philosophy of language*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – P. 203.

³⁵ Victoria B.C. *Marriage customs and ceremonies in world religions*. – Trafford, 2005. – P. 279-282.

³⁶ Fischer A. *Feste und Bräuche in Deutschland*. – Berlin: Sams Müller Kreativ GmbH, 2004. – S. 132.

tug‘ilishi va vafoti bilan bog‘liq qarashlarda urf-odat va marosimlarga azal-azaldan alohida e‘tibor berilgan. O‘lim bilan bog‘liq marosimlar bir necha ming yillik tarixga ega bo‘lib, ular umuminsoniy va diniy qadriyatlar bilan bir qatorda hayotiy ehtiyojlar talabidan kelib chiqqan urf-odat hamda udumlarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Nemis madaniyatida o‘zbek motam marosimlaridan o‘ziga xos ravishda farq qiluvchi dafn marosimi vaqtida ma‘ruzachi nutqining lisoniy xususiyatlaridir. Odatda, motam nutqi oila a‘zolari bilan suhbat asosida shakllanadi. Nutqning tuzilishi bilan bir qatorda, til uslubi va qo‘llanilgan stilistik elementlar ham katta ahamiyatga ega ekanligini kuzatishimiz mumkin.

Nutq e‘tiborni tortadigan kirish qismiga ega bo‘lishi va diqqatni jamlash uchun xizmat qilishi kerak. So‘ngra asosiy qism bo‘lib, undan hayotiy voqealar o‘rin oladi. Tiriklik va o‘lim, hayot va o‘lim, umumiy va shaxsiy jihatlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni muvozanatli ta‘minlash zarur³⁷.

Nutq quyidagi tartibda tuzilishi mumkin: oila a‘zolari va yaqinlari bilan nomma-nom salomlashish; motam tutayotganlarning his-tuyg‘ularini aks ettirish; marhumning shaxsiy hayotini yuksak baholash; keng ma‘noda hayotni o‘lim va unga bo‘lgan munosabat bilan bog‘lash; asosiy fikrlarni umumlashtirish; kelajak haqida fikr yuritish; oila talabiga ko‘ra duo yoki baraka so‘zlarini kiritish; oila a‘zolari tomonidan taqdim etilgan materiallar, suhbatlardan olingan sitatalar, she‘r va proza matnlarini kiritish³⁸.

O‘zbek xalqida ham motam marosimlariga tashrif buyuruvchilarga yaqinlari tomonidan marhumning qanday o‘lganligi yoki betob bo‘lganligi haqida qisqa ma‘lumotlar berib o‘tiladi. Bunday holatlarda azadorlarga “Bu Allohning irodasi”, “Alloh sizlarga sabr bersin”, “Hammamiz ham bu dunyoga mehmonmiz” kabi so‘zlar bilan tasalli berish holatlarini kuzatishimiz mumkin.

Ma‘ruzada qo‘llanilayotgan uslubiy vositalar tinglovchilar diqqatini jalb qilish uchun muhim hisoblanadi:

Antiteza (Antithese): *“Was vor wenigen Wochen **unglaublich wichtig** erschien, hat heute **kaum noch eine Bedeutung**“* (Bir necha hafta oldin juda muhim ko‘ringan narsa, bugun deyarli **hech qanday ahamiyatga** ega emas).

Alliteratsiya (Alliteration): *“Mit **Kind und Kegel** ist die Familie 1920 nach Hamburg umgezogen“* (**Bola chaqasi bilan** 1920 yilda Gamburgga ko‘chib o‘tdi).

Ishora (Anspielung): *“Die große Kiste mit den vielen Fotos, die er hinterlassen hat, ist ein stummer Zeuge bewegter Jahre“* (U qoldirgan ko‘plab suratlar bilan to‘lgan katta quti, bu yillar davomida kechgan **hayotning soqov guvohidir**).

Klimaks (Steigerung – Klimax): *“Sie arbeitet **zehn, zwölf, manchmal vierzehn** Stunden täglich“* (U har kuni o‘n, o‘n ikki, ba‘zan o‘n to‘rt soat ishlaydi).

Antiklimaks (Abfallende Steigerung – Antiklimax): *“**Großmutter, Mutter und Kind** wohnten gemeinsam in einem Haus“* (**Buvi, ona va bola** birgalikda bir uyda yashashgan).

³⁷ Janetzky B.A. Trauer Reden. Leitfanden für Traueransprachen. – Düsseldorf: Fachverlag des deutschen Bestattungsgewerbes, 2020. – S. 15.

³⁸ Janetzky B.A. Trauer Reden. Leitfanden für Traueransprachen. – Düsseldorf: Fachverlag des deutschen Bestattungsgewerbes, 2020. – S. 44.

Gap boshida takrorlash (Anafora): *“Ich liebte die Sonnenuntergänge am Meer. Er liebte die Sonnenuntergänge in den Bergen“* (Men dengiz bo‘yidagi quyosh botishlarini yaxshi ko‘rardim. U tog‘dagi quyosh botishlarini yaxshi ko‘rardi).

Gap qismlarining simmetrik kesishishi (Xiazm): *“Sie liebte Laubbäume, Nadelbäume mochte sie nicht“* (U bargli daraxtlarni yaxshi ko‘rardi, ignabargli daraxtlarni yoqtirmasdi).

His-tuyg‘ularni kuchaytirish uchun so‘zning qat‘iy urg‘ulanishi (Emfaza): *“Wir sind eingebunden in eine Ewigkeit. Eine Ewigkeit, die keine Dauer kennt.“* (Biz abadiylikka bog‘langanmiz. Abadiylik, bu davomiyligni bilmaydi).

Urg‘u berish maqsadida gapdagi oddiy so‘z tartibini o‘zgartirish (Inversiya): *“Ein Lebenskünstler war er!“* anstelle von *„Er war ein Lebenskünstler!“* (U hayot san‘atkori edi! o‘rniga Hayot san‘atkori edi u!)

Majoziy ifoda (Metafora): *“Sie war die Vorsitzende ihres Jahrgangs“* (U o‘z davrining raisi edi).

Quyidagi jadvalda ushbu farqlarning asosiy mezonlar bo‘yicha umumlashtirilgan ko‘rinishini ko‘rish mumkin:

2.3-jadval. O‘zbek va nemis motam nutqida qo‘llaniladigan lingvistik vositalar

№	Lingvistik mezonlar	O‘zbek motam nutqi	Nemis motam nutqi
1	Marhumga murojaat shakllari	Bevosita tilga olinmaydi, “marhum”, “mayit”, “rahmatli”	“Lieber Vater...”, “Du warst...” kabi bevosita murojaat
2	Qatnashuvchilarga murojaat usullari	“Aziz birodarlar”, “yaqinlar”, umumlashtiruvchi formulalar	“Liebe Angehörige”, “Trauergemeinde” kabi rasmiy murojaat
3	Emotsional ifoda vositalari	“voy-voy”, “dod”, yig‘i, hissiy aytilmlar	Metaforik obrazlar, bosiqlik va silliqlik orqali ifoda
4	Evfemizm va metaforalar	“bu dunyoni tark etdi”, “omonatini topshirdi” (evfemizm)	„Sein Leben ist erloschen“, „Letzte Reise“ (metafora)
5	Nutq strukturasi va stilistik qurilmalar	She‘r, maqol, folklor, emotsional sintaksis	Antiteza, anafora, inversiya, dialogik konstruktsiyalar
6	O‘limni tasvirlash uslublari	“Hayotdan ko‘z yumdi”, “vafot etdi” yumshoq ifodalar	“Er verliess uns”, “Er schlief friedlich ein“ yumshoq ifodalar
7	Marhumning hayotini baholashdagi til vositalari	“yaxshi inson edi” faqat ijobiy baholovchi birliklar	“Er war aufrichtig”, “nicht fehlerfrei aber menschlich“
8	Diniy nutq birliklari	“qabr”, “duo”, “savob” islomiy mazmunga ega birliklar	„Erlösung“, „Himmel“, „Auferstehung“ kabi xristian birliklar
9	Muloqot usullari	Hissiy ta’sir, tasalli, dalda beruvchi nutq	Rasmiy, muvozanatli, samimiy xayrlashuv formulalari

Dissertatsiyaning “**Oilaviy nutqiy etiketning lingvopragmatik xususiyatlari**” deb nomlangan uchinchi bobida o‘zbek va nemis nutqiy etiketida salomlashish va xayrlashish vaziyatlarining lingvopragmatik o‘ziga xosliklari, oilaviy diskursda ota nutqining lingvopragmatik va sotsiolingvistik xususiyatlari, ona nutqining lingvopragmatik tahlili keltirilgan.

Bobning birinchi fasli *o‘zbek va nemis nutqiy etiketida salomlashish va xayrlashish vaziyatlarining lingvopragmatik o‘ziga xosliklari* deb nomlanadi. 1930-yillarning oxirida nemis tilshunos olimi Vilgelm Brukner tarixiy davrlardagi nemis salomlashuv nutqiy vaziyatlarining umumiy xususiyatlarini tadqiq qiladi³⁹. U o‘z tadqiqotida “Xudoga ishora qiluvchi” “eski salomlar” endi “qisman boshqalar bilan almashtirilganligini” aniqlaydi⁴⁰.

XIX-XX asrlar notiqalari, shubhasiz, diniy xayrlashuv salomlashuvlaridan yuz o‘girishadi. Masalan, “*Xudo sizni barakali qilsin*” (behüt dich Gott), “*Xudo beribdi*” (Gott befohlen), “*Xudo bilan bo‘ling*” (geh mit Gott) yoki “*Xudoning salomi bo‘lsin*” (grüß Gott) kabi salomlashish shakllari. Norasmiy shakl bo‘lgan “*tschus*” dan farqli o‘laroq hali ham “*adieu*”, “*ade*” va “*addio*” kabi xorijiy diniy salomlardan foydalanish XX asr oxiriga kelib o‘zgarganligini kuzatishimiz mumkin. Boshqa tomondan, xuddi shu davrda mashhur bo‘lgan salomlashish shakllari xudoni xayrlashuvda qo‘llamaslik yoki, hech bo‘lmaganda, his qilmaslik kuzatiladi.

Bu mulozamatlarning ba‘zilari dastlab xayrlashuvda kompliment (xushomad) tilaklar sifatida qo‘llanilgan⁴¹, ular, masalan, “*yaxshi uxla*” (schlaf gut), “*dam olish kunini yaxshi o‘tkazing*” (schönes Wochenende), “*o‘zingni asra*” (mach’s gut) kabilar.

Salomlashish ko‘pincha tilaklar bilan chambarchas bog‘liqdir. Ularning kelib chiqishi, odatda, yaxshi tilaklardan olingan bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan asl ma‘nosi an’anaviy odatiy holiga kelangan. Masalan:

Guten Tag! (Xayrli kun!); *Guten Abend!* (Xayrli kech!); *Grüß Gott!* (Xudoning salomi bo‘lsin!) – Janubiy Germaniya va Avstriyada.

Salomlashuv va tilaklar orasidagi asosiy farq shundaki, salomlashuvlarga odatda faqat bir xil javob beriladi:

“*Guten Morgen!*” – “*Guten Morgen!*” tilaklarga esa minnatdorchilik bildiriladi va ko‘pincha javob tilaklar bilan qaytariladi: “*Einen schönen Tag noch!*” (*Kuningiz xayrli bo‘lsin!*) – “*Danke, Ihnen auch!*” (Rahmat, sizga ham!).

So‘nggi paytlarda nemis tilidagi salomlashuvlarni ijobiy tilaklar bilan birga qo‘llash an’anasi kuchaymoqda. Masalan:

(*Ein*) *Schönes Wochenende!* (Yaxshi dam olish kunlarini tilayman!)

(*Einen*) *Schönen Tag noch!* (Yaxshi kun tilayman!)

O‘zbek tilida salomlashuv va hol so‘rash ko‘pincha bir-biriga chambarchas bog‘liq. Masalan:

³⁹ Bruckner 1939/1940: 79-80. Dieses Grußbildungsprinzip und/oder die Abwendung von religiösen Grüßen erwähnen auch Prause 1930: 80.

⁴⁰ Bruckner 1939/1940: 79-80. Dieses Grußbildungsprinzip und/oder die Abwendung von religiösen Grüßen erwähnen auch Prause 1930: 80.

⁴¹ Geiger, Paul / Richard Weiss / Walter Escher u. a. (1950–1995), Atlas der schweizerischen Volkskunde, 2 T. und 7 Einführungs-, Kommentar-, Registerbde., hrsg. von der Schweizerischen Gesellschaft für Volkskunde, Basel / Erlenbach Zürich.

“Assalomu alaykum! Qalaysiz?” – “Valaykum assalom! Yaxshi, o‘zingiz yahshimisiz?”

Bu shaklda suhbatdoshga nisbatan iliq munosabat va hurmat aks etadi. Quyida biz har ikki xalqdagi salomlashuv va hol so‘rash o‘rtasidagi farqlanishlarga e‘tibor qaratamiz.

Salomlashuv har ikki tilda ham javob salomi bilan cheklanadi:

“Guten Morgen!” – “Guten Morgen!”, “Assalomu alaykum!” – “Valaykum assalom!”

Hol-ahvol haqida so‘rash esa javob talab qiladi va ko‘pincha suhbat davomida qayta so‘ralishi ham mumkin:

“Wie geht’s dir?” – “Gut, danke, und dir?”, “Qalaysiz?” – “Rahmat, yaxshi. O‘zingiz-chi?”

Nemis tilida “Es war schön, Sie zu sehen” (Sizni ko‘rish yoqimli bo‘ldi) yoki “Es hat mich gefreut, Sie zu treffen” (Siz bilan uchrashishdan xursand bo‘ldim) kabi jumlar suhbatni muloyim va hurmat bilan yakunlashning boshlang‘ich qismi sifatida ishlatiladi. Bunga javoban, “Vielen Dank, das freut mich auch” (Rahmat, men ham xursand bo‘ldim) yoki oddiygina “Ich ebenso” (Men ham shunday) kabi jumlar aytiladi.

O‘zbek tilida esa “Sizni ko‘rib xursand bo‘ldim”, “Uchrashganimiz yaxshi bo‘ldi” yoki “Gaplashib maza qildim” kabi jumlar suhbatni chiroyli yakunlashning odob sifatida qo‘llaniladi. Har ikkala madaniyatda bu kabi ifodalar hurmat va iliqlikni namoyon etuvchi muloqot tamoyillariga mos keladi.

Nemis tilida xayrlashuv uchun neytral va keng qo‘llaniladigan iboralar, masalan, “Auf Wiedersehen” (ko‘rishguncha) yoki “Tschüss” (xayr) ishlatiladi. Shuningdek, do‘stona va muloyim muloqotda “Passen Sie auf sich auf” (O‘zingizni ehtiyot qiling) yoki “Bis bald” (Tez orada ko‘rishguncha) kabi iboralar ham qo‘llanilib, iliq kayfiyatda xayrlashuvni namoyon qiladi. Mehmon kuzatilayotgan paytda “Gute Reise” (Yaxshi safar) yoki eine schöne Reise (maroqli sayohat tilayman) iborasi odatiy, ayniqsa, safarga ketayotgan odamlarga nisbatan qo‘llanilib kelinadi. Nemis madaniyatida xayrlashuv iboralari neytral va konnotativ xatolardan xoli bo‘lib, muloqotda samimiylikni saqlaydi.

O‘zbek madaniyatida xayrlashuvning turli shakllari mavjud. Rasmiy vaziyatlarda diniy mazmundagi iboralar “Allohga omonatsiz”, “Alloh panohida asrasin” ko‘p qo‘llanadi. Biroq ular turli din vakillari uchun bosim sifatida qabul qilinishi mumkin. Shu bois neytral iboralar “Yaxshi qoling”, “Ko‘rishguncha”, “Omad tilayman” rasmiy va norasmiy vaziyatlarda ham mos keladi.

Uchinchi bobning ikkinchi faslida oilaviy diskursda ota nutqining lingvopragmatik va sotsiolingvistik xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Oila har bir jamiyatning asosi bo‘lib, unda ota shaxsining o‘rni va roli muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek va nemis oilalarida ota nafaqat oilaning bosh tayanchi va mas‘ul shaxsi, balki tarbiya jarayonida yetakchi bo‘lgan ma‘naviy va ijtimoiy obro‘ga ega shaxs sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ikkala madaniyatda ham ota oilaviy qadriyatlarni saqlashda, farzandlarning kamolga yetishishda va ularning ma‘naviy

tarbiyasida hal qiluvchi o‘rin egallaydi, ammo bu jarayonlarning ifodasi va amalga oshirilish shakli har bir millatning madaniy xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi.

O‘zbek oilalarida ota boshliq sifatida qat‘iyat va salobat bilan namoyon bo‘lib, mas‘uliyatni zimmasiga oladi hamda farzandlar tarbiyasida tajribasi bilan ishtirok etadi. Nemis oilalarida esa otaning roli demokratiyaga asoslangan bo‘lib, u ochiqlik, konstruktiv tanqid va hamkorlikka yo‘naltirilgan muloqot orqali tarbiyada ishtirok etadi. Islomga mansub xalqlarda, jumladan o‘zbek oilalarida, otaning mavqei yuqoriligi sababli farzandlar ko‘pincha fikrlarini avval onalari orqali otalariga yetkazish odat tusiga kirgan.

Otaning oilada farzandlar tarbiyasiga nisbatan qattiqqo‘lligi, onaga qaraganda mas‘uliyatining bir qadar yuqoriligi, farzandlarini moddiy jihatdan ta‘minlash ko‘proq ota zimmasiga yuklatilishi ota nutqida ham o‘z aksini topganligini taniqli tilshunos olim va shoir Siddiq Mo‘minning quyidagi misralarida kuzatishimiz mumkin:

Aylanayin bo‘yingdan, ko‘zlaringga ko‘z tumor,

O‘tir, o‘g‘lim, sen uchun aytadigan gapim bor.

Pahlavonim, shunqorim, qil so‘zimga e‘tibor:

Osmonda bir Xudoy-u yerda yolg‘iz otang bor⁴².

Yuqorida S.Mo‘minning “Otalar zikrida” nomli she‘rida ota nutqidagi farzandiga qilgan sharqona pand-u nasihatlarini she‘riy misralarlarda ifodalaganini ko‘rishimiz mumkin. She‘rda otaning “aylanayin bo‘yingdan”, “ko‘zlaringga ko‘z tumor”, “pahlavonim”, “shunqorim” kabi ifodalar bilan erkalagan holda o‘g‘lining hali yoshligi bois, hayotda yashash va to‘g‘ri yo‘ldan ketish oson emasligini, bu yo‘lda otasining pand-nasihatlariga quloq tutishi lozimligini, otasi yo‘qlar hayotda ko‘p qoqilganini va hatto ajdodlar otani Xudoga tenglashtirganini ta‘kidlaydi.

Xalqimizda uzoq yillardan beri hatto o‘g‘il uylantirishda ham otaning roziligini olish, ota rozi bo‘lmagan yoki oq fotiha berilmagan nikoh baxtli turmush bo‘lmasligi, oila qurishda “Ota rozi – Xudo rozi”, “Ota yer yuzining ikkinchi Allohi” kabi naqllarga amal qilinib kelinayotgani, ota hukmronligi bo‘lmagan oilalar tanazzulga uchrashi yoki xalq orasida bebro‘ bo‘lishi va shu sabab o‘g‘il uylantirish yoki qizni turmushga uzatishda bo‘lajak qudalar oilasini “Oilada ota hukmronmi?” yoki “Oilada hamma narsani ota hal qiladimi?” kabi so‘rovlar bilan surishtirilishi odat tusini olgan.

Aqlimni hali to‘la tanib-tanimagan yoshimda dadam bir kuni meni yoniga olib, hovli etagiga, bobom kenja o‘g‘limga deb qurgan amakimning uyiga olib bordi. Amakim va yangamni oldiga chaqirdi-da, menga “Endi, o‘g‘lim, siz bu uyning farzandisiz, bularni ota-ona deb chaqiring”, dedi sizlaganacha. Dadam bolalarni “siz”ladimi, bo‘ldi, onam ham, boshqalar ham, hammamiz buning nima ekanini bilardik. “Sizlash” dadamning “Bu masala hal bo‘lgan, muhokama qilmanglar”, degani edi⁴³.

Ushbu parcha o‘zbek oilaviy diskursida nutq aktlari orqali ijtimoiy qudrat va hokimiyatni qanday ifodalanishini aniq ko‘rsatib beradi. Jumladan, “sizlaganacha

⁴² Mo‘min S. E‘zoz. – Farg‘ona: Classic, 2015. – B. 9.

⁴³ Nazar Eshonqul. Bepoyon osmon. (Hikoya) <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/nazar-eshonqul-1962/nazar-eshonqul-bepoyon-osmon-hikoya>

dedi” ifodasi illokutiv akt sifatida amal qilmoqda. Bu yerda “*sizlash*” oddiy xushmuomalalik emas, balki normativ pragmatik signal vazifasini bajaradi. U orqali ota o‘zining qaroriga muqaddaslik va muhokamasizlik atributini yuklaydi.

Shuningdek, “*Bu masala hal bo‘lgan, muhokama qilmanglar*” degan metapragmatik izoh oila a‘zolarining (xususan bolalarning) ota qaroriga e‘tiroz bildirmasligi, uni so‘zsiz qabul qilishi kerakligini anglatadi. Bu holatda pragmatik presuppozitsiya ya‘ni, oldindan qabul qilingan ijtimoiy haqiqat mavjud, ota so‘zining muqaddasligi, uning har bir ifodasi kontekstual darajada qat‘iy me‘yoriy kuchga ega.

Nemis oilalarida bu masalaga butunlay boshqacha yondashiladi: farzandlar qachon va kimni xohlasa, o‘shanda turmush qurishlari mumkin. Shu bilan birga, otalar farzandlarini tarbiyalashda ularning qobiliyat va iqtidorlariga alohida e‘tibor qaratib, jamiyatda munosib o‘rin egallashlariga ko‘maklashishga intiladilar. Kundalik turmushda maktabdan qaytgan farzandlariga ota va ona ham birdek “*Wie war dein Tag?, Wie hast du an dem Unterricht teilgenommen? Wie reagiert dein Lehrer auf deine Antworten?* (Kuning qanday o‘tdi?; Darsda qanday qatnashding?; O‘qituvching sening javoblaringni qanday qabul qildi?) kabi savollar bilan murojaat qiladilar.

Nemis oilalarida ota farzandlari bilan albatta suhbatlashishga vaqt ajratadi. Deyarli barcha nemis oilalarida 10-12 yoshgacha farzandlarining uxlashlaridan oldin bolalar uchun mo‘ljallangan biror bir yozuvchilarning ertak yoki hikoyalarini o‘qib berish ularni mutolaa qilish odat tusini olgan. Mutolaa davomida farzandlariga “*Hat dir das Märchen/Geschichte gefallen?, Warum? Kannst du den Inhalt des Märchens/der Geschichte wiedergeben? Was könntest du an seiner/ihrer Stelle machen?*” (Senga ertak/hikoya yoqdimi? Nima uchun?; Sen ertak/hikoyani gapirib bera olasanmi?; Sen uning o‘rnida bo‘lganingda nima qilgan bo‘larding?) kabi savollar bilan murojaat qiladilar. Bu bilan ular farzandlarining dunyoqarashini kengaytirib, adabiyotga mehr uyg‘otadi, so‘z boyligini hamda tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi. Otalar esa tarbiyada ko‘pincha maqtov va ruhlantiruvchi ifodalardan foydalanishlarini kuzatishimiz mumkin. Masalan: *Ich bin stolz auf dich!, Niemand könnte das wie du machen! Du wirst der beste Maler, Sänger, Gelehrte, Lehrer, Arzt, Programmierer! Das ist super, prima, toll, sehr gut!* (Men sen bilan faxrlanaman! Hech kim buni sendek qila olmaydi!; Sen eng yaxshi rassom, qo‘shiqchi, olim, o‘qituvchi, vrach, programmist bo‘lasan!; Bu ajoyib, yaxshi, qoyil, juda yaxshi!) kabi ifodalarni ishlatib turadilar. Farzandi chizgan oddiy rasmni juda yuqori baholab, ba‘zan hafta davomida xona devorlariga ushbu rasmni osib qo‘yadilar. Haftaning ma‘lum bir kunlarida otalar farzandlarining o‘qituvchilari bilan suhbatlashib turadilar. Bu bilan ular farzandining darslardagi o‘zlashtirishlari bilan tanishib boradilar.

Uchinchi bobning uchinchi faslida *ona nutqi lingvopragmatik tahlil* etilgan. Oila – inson hayotining tamal toshi bo‘lib, unda har bir oila a‘zosi o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lishi ma‘lum. O‘zbek oilasida esa onaning tutgan o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Ona – nafaqat farzandlar tarbiyasida asosiy mas‘ul shaxs, balki oila ichidagi mehr-oqibat, sabr-toqat va bag‘rikenglikning ramzidir. Onaning nutqi oilaviy

muloqotda muhim vosita bo‘lib, u orqali farzandlariga nafaqat ta’lim-tarbiya, balki ruhiy madad ham beradi.

O‘zbek oilasida ona nutqi yumshoqligi, samimiyat va mehrga boyligi bilan ajralib turadi. Onaning har bir so‘zi, hatto eng oddiy iborasi ham, farzandga bo‘lgan cheksiz g‘amxo‘rlik va mehr ifodasidir. Shu bilan birga, ona nutqi madaniy va an’anaviy qadriyatlarning uzviy qismi sifatida oila a’zolariga axloqiy va ma’naviy mezonlarni singdirib keladi. U xalqona iboralar, duolar va farzandini erkalatishlari orqali oilaviy iliqlikni mustahkamlaydi.

Odatdagidek tik turgancha nonushta qilayotgan edim. Onam odatdagidek qistardi:

– *O‘tirsang-chi, bolam. Birpas o‘tirgin.*

– *Bo‘ldi, ketdim.*

– *Shoshma, bolam. – Onam ko‘zimga odatdagidan boshqacha, qandaydir mung bilan termildi.*

– *Gap bor.*

Tipirchilab soatga qaradim: hali yoqilg‘i olish kerak, ishga borish kerak, keyin nashriyotga o‘tish...

– *Nima edi?*

Onam ko‘zimga hamon ma’yus termilib o‘tirardi.

– *Suratga tushaylik, – dedi to‘satdan.*

Ajablandim.

– *Nega?*

– *Yaqinda men o‘laman.*

Onam bu gapni xuddi: «Qo‘shninikiga chiqib kelaman», degandek ohangda aytdi. Kulib yubordim.

– *Qo‘ysangiz-chi, oyi.*

Shunday dedim-da, chiqdim ketdim.

Oradan ikki hafta o‘tdi-yu... Kechalari uyg‘onib ketaman, o‘y layman. O‘y layman: sen nomard, sen ahmoq nimaga, nimaga o‘shanda kulding? Suratga tushishga vaqting yo‘qmidi? Kerak bo‘lsa topasan-ku! Kitob uchun, jurnal uchun, ish ustida, bog‘da, ko‘chada... Nima, sen kinoyulduzmisan? Jahonshumul shaxsmisan? Ana, bir dasta surating yotibdi. Har xil. Har yerda... Faqat... Onang bilan tushgan surating yo‘q⁴⁴!

Ushbu matnda ona va farzand o‘rtasidagi hissiy munosabat, vaqtning o‘tkinchiligi va insonning ba’zan oddiy hayotiy qadriyatlarga e’tibor bermasligi teran aks ettirilgan. Matndagi ona tasviri mehribon, mard va o‘zining onalik burchini yuksak darajada his qiluvchi shaxs sifatida tasvirlangan. Uning “Suratga tushaylik” degan oddiygina iltimosi ortida chuqur hissiyotlar, o‘limni xotirjam qabul qilish va onaning farzandi bilan so‘nggi muloqotga bo‘lgan ehtiyoji yashiringan. Farzandining beparvoligi, keyinroq pushaymon va armon qilish kabi hissiy holatlar ochib berilgan.

Biz quyida nemis oilalarida kundalik hayotda uchrab turuvchi onalar nutqiga yoki oiladagi nutqiy etiket sifatida qabul qilingan shakllarga to‘xtalib o‘tamiz.

Wilhelmning onasi:

⁴⁴ Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari: Qissa va hikoyalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 34-35 betlar.

“Wilhelm, verliere nie den Glauben an das Gute. Die Welt mag dich oft enttäuschen, aber ein reines Herz bleibt immer stark“⁴⁵. (Vilgelm, yaxshilikka bo‘lgan ishonchingni hech qachon yo‘qotma. Dunyo seni ko‘p marta umidsizlantirishi mumkin, lekin pok qalb doimo kuchli bo‘lib qoladi).

Wilhelm onasining ushbu so‘zlari lingvomadaniy jihatdan ijobiy qadriyatlarni asrab-avaylashga qaratilgan o‘gitni ifodalaydi. *“Wilhelm, verliere nie den Glauben an das Gute“* jumlasini orqali ona farzandiga hamisha yaxshilikka va umidda tayanib yashashni o‘rgatmoqda. Ushbu so‘zlar nemis madaniyatida imon va ma’naviy qadriyatlarning ahamiyatini, xususan, hayotiy sinovlar oldida ham insoniylikni saqlashi zarurligini ta’kidlaydi.

“Die Welt mag dich oft enttäuschen, aber ein reines Herz bleibt immer stark“ jumlasini esa hayotning haqiqiy qiyinchiliklarini tan olish bilan birga, ma’naviy kuch va poklikning g‘alaba qozonishi haqidagi umidini ifodalaydi. Madaniy jihatdan onaning bu nutqi nemis an’anaviy axloqiy qadriyatlarini aks ettirib, insonning hayot qiyinchiliklariga bardosh berishida ichki fazilatlar va imonning naqadar muhimligini ko‘rsatadi. Bu so‘zlar farzandni faqatgina tashqi olam muhitiga moslashishga, balki o‘zining ma’naviy fazilatlarini saqlashga undaydi va jamiyatdagi axloqiy idealni ifodalaydi.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi **“Oilaviy kommunikatsiya va paremiologiyaning lingvomadaniy aspektlari”** deb nomlanib, unda o‘zbek va nemis oilalarida kommunikativ etiketning milliy-madaniy xususiyatlari, oilaviy nutqiy etiketning paremiologik tadqiqi, o‘zbek va nemis oilalarida tabu hamda evfemizmlarning sotsiolingvokulturologik funksiyalari haqida fikr yuritilgan.

Bobning birinchi fasli *o‘zbek va nemis oilalarida kommunikativ etiketning milliy-madaniy xususiyatlari* deb nomlanadi. Nemis oilaviy madaniyatida muloqotning hech qanday andishalarsiz va ochiqligi, shaxsiy makonga bo‘lgan hurmat, vaqtning qiymati va unga amal qilish, oilaviy bahs-munozaralar, o‘zaro murojaatdagi rasmiyatchilik va oilaviy an’analar muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Rostgo‘ylik va ochiqlik nemis oilaviy nutqiy etiketida juda qadrlanadi. Shu nuqtayi nazardan, oila a‘zolari ko‘pincha o‘z fikrlari va his-tuyg‘ularini ochiq hamda ikkilanmasdan bildirishlari kuzatildi. Masalan, o‘g‘il otaga qarata shunday deyishi mumkin.

– *Vater, ich verstehe dich, aber ich glaube, dass du in deinem Urteil irrst*⁴⁶. (*Otajon, men sizni tushunaman, lekin siz qaroringizda yanglishyapsiz, deb o‘ylayman*).

Ko‘rinadiki, bu ifoda nemis madaniyatida keng tarqalgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ochiq muloqot uslubini namoyon etadi. O‘zbek oilalarida esa qiz yoki o‘g‘il otasiga qarata uning qarori noto‘g‘ri deyishi o‘zbek oilaviy etiketiga zid hisoblanadi va garchand ota noto‘g‘ri fikrni bildirsa ham.

Nemis oilalarida, odatda, fikrlar va qarashlar ochiq va ravshan ifoda etiladi, bu esa nemis madaniyatida o‘zbek madaniyatidan farqli o‘laroq, o‘zaro tushunish va samimiy munosabatlarni qurishga yordam beradi.

⁴⁵ Goethe J.W. Wilhelm Meisters Lehrjahre. – Die digitale Bibliothek. – S. 246.

⁴⁶ Goethe J.W. Die Leiden des jungen Werther. – Anaconda Verlag, 2005. – S. 112.

Nemis oilalari orasida qarorlar qabul qilish jarayonida tanqidiy fikrlashni rag‘batlantirish muhim hisoblanadi.

– *Ferdinand: “Das kann ich so nicht akzeptieren, Vater. Wir sollten darüber nochmal nachdenken”*⁴⁷. (Men buni shunday qabul qila olmayman, otajon. Buni yana bir bor muhokama qilishimiz kerak).

2. Shaxsiy makonga hurmat hissi nemis oilalarida har bir oila a’zosining shaxsiy maydoni va individualligiga katta e’tibor beriladi. Ota-onalar ko‘pincha o‘z farzandlarini yoshlik chog‘laridanoq mustaqil bo‘lishga undaydilar va shu asosda tarbiya qiladilar. Masalan, ota-onaning farzandlariga ko‘p hollarda shunday deyishlari kuzatiladi:

– *“Du bist jetzt alt genug, Wilhelm. Entscheide selbst, was dir wichtig ist”*⁴⁸. (Endi sen yetarlicha ulg‘aygansan, Vilgelm. Sen uchun muhim bo‘lgan narsani o‘zing hal qil).

Bu ifoda orqali ota-ona tomonidan shaxsiy tanlov va mustaqillikka bo‘lgan hurmatning ifodalayotganini ko‘rish mumkin. Nemis madaniyatida oila a’zolarining shaxsiy qarorlariga ishonch va hurmat muhim hisoblanadi.

O‘zbek oilalarida shaxsiy makonga hurmat hissi nemis oilalaridan farqli ravishda ko‘proq oilaviy birdamlikka asoslanadi. Ota-onalar farzandlari uchun mas’uliyatni uzoq vaqt davomida o‘z zimmalarida saqlab qoladilar va ko‘pincha ularning hayotiy qarorlariga faol ravishda aralashadilar.

O‘zbek oilalarida ota-onalar ko‘pincha farzandlarining tanlovlari va qarorlariga faol ta’sir o‘tkazadilar. Bu, ayniqsa, ta’lim, kasb tanlash va turmush qurish masalalarida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Yuqorida ko‘rganimizdek, nemis madaniyatida uchraydigan *“Entscheide selbst, was dir wichtig ist”* kabi ifoda o‘zbek oilalarida kamdan-kam uchraydi.

O‘zbek oilalarida ota-onalar farzandlarini nafaqat tarbiya, balki moddiy va ma’naviy jihatdan ham qo‘llab-quvvatlaydi. Bu qo‘llab-quvvatlash farzand mustaqil hayotga o‘tgandan keyin ham davom etishi mumkin. Masalan, ota-ona farzandining yangi uy-joy sotib olishiga yoki to‘y qilishiga yordam beradi. Bu esa oilaviy birdamlikni ta’minlaydi.

Nemis oilalarida bahs va munozara muloqot jarayonining muhim qismi hisoblanadi. Katta yoshli oila a’zolari ko‘pincha bolalarni turli mavzulardagi suhbatlarga qo‘shib, tanqidiy fikrlashni rivojlantiradilar.

– *“Kinder, sagt, was ihr denkt. Eure Meinungen zählen genauso wie die der Erwachsenen”*⁴⁹ (Bolalar, nima deb o‘ylayotgan bo‘lsangiz, ayting. Sizning fikrlaringiz ham kattalarnikidek muhimdir.).

Bu jumla nemis oilalari orasida bahs-munozaralarning ahamiyatini ko‘rsatadi. Bolalarning fikrlari va qarashlarini inobatga olish, ularga turli mavzularda o‘z fikrlarini bildirish imkoniyatini berish madaniy qiymat hisoblanadi.

⁴⁷ Schiller F. Kabale und Liebe. – Reclam, Philipp, jun. GmbH, Verlag, 1993. – S. 141.

⁴⁸ Goethe J.W. Wilhelm Meisters Lehrjahre. – Deutscher Taschenbuch, 2004. – S. 726.

⁴⁹ Kästner E. Das fliegende Klassenzimmer. – Dressler, 2002. – S. 176.

– “*Bevor wir uns festlegen, sollten wir die positiven und negativen Aspekte abwägen*“⁵⁰ (*Biz aniq qarorga kelishdan oldin ijobiy va salbiy jihatlarni o‘ylab ko‘rishimiz kerak*).

Bu ifoda oilaviy qarorlar qabul qilish jarayonida tanqidiy fikrlash va turli nuqtayi nazarlarni inobatga olishning muhimligini aks ettiradi.

O‘zbek oilalarida bahs va munozaralar ko‘proq ota-onalar va kattalarning fikrlari asosida rivojlanadi. Farzandlar oiladagi suhbatlarda faol ishtirok etsa-da, ularning fikrlariga nisbatan, ko‘proq ota-onaning tajribasi va nuqtayi nazari ustuvorlik qiladi. Bu yondashuv oiladagi kattalarning farzandlar tarbiyasida ko‘proq mas’uliyat va nazorat o‘ynashini aks ettiradi.

O‘zbek oilalarida muhim qarorlar ota-onalarning maslahati asosida qabul qilinadi. Bu jarayonda farzandlarning fikri eshutilishi mumkin, lekin yakuniy qaror qabul qilishda ko‘p yillik hayotiy tajribaga ega bo‘lgan ota-onalarning qaroriga asoslanib ish ko‘riladi.

To‘rtinchi bobning *ikkinchi fasli oilaviy nutqiy etiketning paremiologik tadqiqi* deb nomlangan.

Paremiologik birliklar xalq og‘zaki ijodining tarkibiy qismi bo‘lib, ular asrlar davomida shakllangan maqol, matal va hikmatli ifodalardir. Bu birliklar ota-bobolarimizning ma’naviy merosi, ibratli maslahatlari va pand-nasihatlarini avlodlarga yetkazadi hamda xalq donoligi, dunyoqarashi, e’tiqodi va urf-odatlarini ifodalaydi.

Maqol va matallarning oilaviy muloqotda ishlatilishi nafaqat aloqa vositasi sifatida, balki oilaning ichki birdamligini ta’minlash, avlodlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlash, oilada axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni yetkazish va nutqning ta’sirchanligini oshirishda, eng asosiy xususiyati esa ota-onalar tomonidan farzandlarni tarbiyalashda qo‘llanilib kelinadi.

O‘zbek tilida *Bola – loy, ona – kulol* kabi maqollar tarbiya jarayonida onaning beqiyos rolini ko‘rsatadi. Nemis tilida esa *Wie der Vater, so der Sohn* (Ota qanday bo‘lsa, o‘g‘il ham shunday bo‘ladi) Olmaning tagiga olma tushadi kabi maqollar ota-onaning fazilatlarini va qilmishlari farzandlarining kelajakdagi xulq-atvori va dunyoqarashiga bevosita ta’sir qilishi qayd etilganini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, *Otasi tentakning – biri tentak, onasi tentakning – bari tentak*” yoki *“Otasi buzuqning biri – buzuq, onasi buzuqning bari – buzuq”* singari maqollar orqali esa onaning farzand tarbiyasidagi o‘rni muhimligi ko‘rsatilmoqda.

Farzandlarning ota-onaga bo‘lgan hurmati va burchlarini ifodalovchi maqollar har ikki tilda ham keng tarqalgan. Masalan, o‘zbek tilidagi *Otasini og‘ritgan el ichida xor bo‘lar, onasini og‘ritgan parcha nonga zor bo‘lar* maqoli ota-onaga hurmatning o‘zbek madaniyatidagi o‘rni va ahamiyatini ochib beradi. Nemis tilida esa *Das Kind, das seine Mutter verachtet, hat einen stinkenden Atem* (*Onasini xor qilgan bolaning nafasi sassiq*) kabi maqollar bolalar va ota-onalar o‘rtasidagi hurmat aloqalarini ta’kidlaydi.

Ma’lumki, o‘zbek oilalarida, ayniqsa, *otaning ulug‘lanishi, otaga nisbatan hurmatning bir qadar yuqoriligi*, bu esa oila qadriyatiga aylanganini va hatto maqol

⁵⁰ Kästner E. Das fliegende Klassenzimmer. – Dressler, 2002. – S. 176.

va matallarda ham o‘z ifodasini topganini kuzatishimiz mumkin. Masalan, “Urug‘ingga so‘z aytsang, orasini buzib ayt, *Otang* ishga buyursa, namozingni buzib ayt” maqoli o‘zbek madaniyatida ota so‘zining naqadar obro‘yi baland ekanligini va unga bo‘ysunish insonning asosiy burchi ekanini ko‘rsatadi. Namoz kabi muhim ibodatni ham vaqtinchalik to‘xtatib, ota so‘zini bajarish zarurligini eslatadi. Bu o‘zbek xalqining an‘analarida ota-onaga hurmatning diniy va ma‘naviy qadriyatlardan ham ustuvor ekanini yoritadi.

